

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TABIIY FANLAR FAKULTETI

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**« SAMARQAND VILOYATIDA ETNOTOPONIMLARNING
GEOGRAFIK JIHATLARI » mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi: «Geografiya» ta‘lim y o`nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Qarshiyev Akmal
Eshmamatovich**

**ILMIY RAHBAR
dots. M.R.Usmonov**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.
_____sonli bayonnoma «__»_____2013 yil

Samarqand-2013

MUNDARIJA

Kirish.....

I. BOB. SAMARQAND VILOYATI TOPONIMINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY VA IQTISODIY OMILLARNING ROLI.....

- 1.1. Geografik o`rni va joylanishi.....**
- 1.2. Tabiiy sharoiti va resurslari.....**
- 1.3. Aholisi va geodemografik vaziyati.....**
- 1.4. Xo`jaligiga umumiy tavsif.....**
- 1.5. Toponim ob`ektlarning shakllanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati...**

II BOB SAMARQAND ETNOTOPONIMLARNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.....

- 2.1. Joy nomlarining shakllanishida etnotoponimlarning roli.....**
- 2.2. Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit- turk» asarida joy
nomlarining qo`llanilishi.....**

III BOB. SAMARQAND VILOYATI BO`YICHA O`ZBEK XALQI ETNIK GURUHLARI TARQALISH GEOGRAFIYASI.....

- 3.1. Tumanlar etnotoponimlari geografiyasi.....**
- 3.2. Viloyatda etnik guruhlarining tarqalish.....**
- 3.3. Samarqand viloyatida etnik guruhlar asosida joy nomlarining
berilishi.....**

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar.....

Kirish

***Biz o`zimizni doimo mustaqil millat-o`zbek xalqi sifatida
his etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz.***

Islom Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Islom Karimov haqli ravishda ta`kidlaganidek, “o`zbek xalqi «Avesto» paydo bo`lgan zamonlardan buyon o`z hayoti, o`z madaniyati, o`z tarixi bilan yashab keladi. Bunday turmush tarzi, bunday tarix, bunday madaniyat betakror bo`lib, u jahon madaniyatining beqiyos durdonalaridan hisoblanadi”.

Ma`lumki, O`zbekiston Respublikasining geografik ob`ektlarga nom berish tugrisidagi konunda ta`kidlab utilgandek, geografik nomlarning atalishi, bevosita shu joyning tarixiy, geografik va etnografik xususiyatlaridan kelib chikkan xolda, ma`naviyatimiz va mafkuramizga zid bulmagan nomlar bilan nomlash masalasi muxim axamiyat kasb etadi. Binobarin, joy nomlari kelib chikishiga kura, orotoponomik, gidrotoponomik, etnotoponomik, zootoponomik, fitotoponomik va boshka turlarga bulinadi. Bular ichida etnotoponimlar aloxida uringa egadir.

Geografiya ta`limi joy nomlari bilan juda bog`langan. Geografiyada biror ma`lumot yo`qki, u joy nomi bilan bog`lanmagan bo`lsin. Joy nomlarini, ularning ma`nosi, kelib chiqishini bilmasdan turib, shu joy geografiyasini to`liq o`rganib bo`lmaydi. Toponimika va terminologiya kishilarning ilmiy, ma`naviy saviyasini, madaniyatini rivojlantiradi. Bitiruv ishining nazariy asoslari sifatida shu sohada yaratilgan g`oya va tamoyillarga asoslanadi.

**BMI ob`ekti va predmeti.** BMI ob`ekti sifatifa Samarqand viloyati etnotoponimlari olingan.

Ishning maqsad va vazifalari. Bititruv malakaviy ishinig maqsadi Samarqand viloyatida etnotoponimlarni geografik o`rganishdan iborat. Shu maqsadda kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi

- Samarqand viloyati toponimining shakllanishida ijtimoiy va iqtisodiy omillarning roli geografik tahlil qilish
- etnotoponimlarning geografik xususiyatlari aniqlash
- Samarqand viloyati bo'yicha o'zbek xalqi etnik guruhlar tarqalish geografiyasi tadqiq etish, xususan tumanlar etnotoponimlari
- etnik guruhlar va shu asosida joy nomlarining berilishini tadqiq etish va x.k

Ishning amaliy ahamiyati. Bugungi kunda “Ergeodezkadastr” davlat qo'mitasi tizimida *Respublika toponimika xizmati* tashkil qilinib, unga geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish, toponimika va boshqa ilmiy tadqiqotlarni bajarish, geografik ob'ektlarning nomlarini maqbullashtirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish, Geografik ob'ektlar nomlari davlat reestrini yuritish, normativ-huquqiy hujjatlar, geografik ob'ektlarning nomlari lug'at-ma'lumotnomalarini ishlab chiqish bevosita foydalanish ishning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy asoslari sifatida Prezidentimiz asarlari, va qaror, farmoyishlar hamda ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari xizmat qiladi. Binobarin, O'zbek xalqi tarixini, madaniyatini keng va xolisona o'rganish kishilarimizda, chunonchi, yoshlarimizda o'z millati, Vataniga bo'lgan ixlosini yanada oshiradi, ularda turli tashqi ta'sirlar, g'ayrimilliy qarashlardan xoli bo'lish qobiliyatini shakllantiradi. Zero, o'zbek xalqi eng qadimiy elat-millatlardan biri bo'lib, ma'naviy madaniyatlari ildizining teranligi sababli asrlar davomida tashqi tajovuzlarga dosh beribgina qolmay, dunyoning juda ko'p xalqlariga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, “o'zbek xalqi «Avesto» paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi. Bunday turmush tarzi, bunday tarix, bunday madaniyat betakror bo'lib, u jahon madaniyatining beqiyos durdonalaridan hisoblanadi”.

Darhaqiqat, o'z millatini tanish, uning chin o'tmishi bilan oshno bo'lish har bir insonda pok ruh va kuchli irodani tarbiyalaydi.

Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan kishilarimizda ushbu xislatlarning shakllanib, rivojlanishi uchun talay imkoniyatlar yaratildi. CHunonchi, o`rta va oliy maktablar o`quv rejalariga O`zbekiston tarixini o`qitish kiritilgan bo`lib, unda, jumladan, o`zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezisini o`rganish nazarda tutilgan. SHuningdek, tilshunoslikning adabiy til va shevalar munosabati, tilning lug`at tarkibi va uning rivojlanishi, dialektologiya, til tarixi, toponimika kabi bo`limlarida urug`-qabila tili, elat tili, xalq tili, millat tili singari ijtimoiy kategoriyalar bilan shug`ullanishga to`g`ri keladi.

SHundan kelib chiqib, o`zbek xalqining etnogenezisi, elat, xalq, millat sifatida shakllanishi tarixini yozish uchun arxeologik, etnografik, lingvistik, toponimik va yozma manbalarni qayta o`rganib, tahlil qilish lozim.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1-bobda Samarqand viloyati toponimining shakllanishida ijtimoiy va iqtisodiy omillarning roli bevosita geografik o`rni va joylanishi, tabiiy sharoitining ahamiyati, aholisi, xo`jaligi hamda ijtimoiy sohalar o`rganilgan

2-bobda esa etnotoponimlarning geografik xususiyatlari tarixan joy nomlarining shakllanish etnotoponimi va «Devonu lug`otit- turk» asarida joy nomlarining qo`llanilishiga ahamiyat berilgan.

3-bobda tadqiqot ob`ekti hisoblangan Samarqand viloyati bo`yicha o`zbek xalqi etnik guruhlar tarqalish geografiyasi tumanlar darajasida etnik guruhlar asosida joy nomlarining berilishi masalalari yoritilgan. Xulosa umumiy taklif va tavsiyalar asosida yozilgan. Ishda foydalangan ilmiy adabiyotlar ro`yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi 80 betni tashkil etadi.

I BOB. SAMARQAND VILOYATI TOPONIMINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY VA IQTISODIY OMILLARNING ROLI

1.1.Geografik o`rni va joylanishi

Samarqand viloyati respublikamizda eng birinchilar qatorida tashkil etilgan. U 15 yanvar 1938 yilda ushbu ma`muriy maqomni olgan. Maydoni 16,8 ming kv.km yoki O`zbekiston hududining 3,7 foiziga teng. Bunday uncha katta bo`lmagan mintaqada, 01.01.2012 yilning dastlabki ma`lumotlariga qaraganda, 3219,8 ming aholi yashagan. Bu mamlakat aholisining 11,1 foizi demakdir. Hududining ko`lami bo`yicha respublikamizda 7-o`rinda, aholisiga ko`ra esa birinchi o`rinda turadi. Bundan to`g`ridan to`g`ri xulosa chiqarish mumkinki, viloyat aholisining zichligi o`rtacha mamlakat ko`rsatkichiga qaraganda deyarli 3 marta yuqori.

Viloyatning demografik salohiyati ancha katta bo`lsada, asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar bo`yicha u uncha ajralib turmaydi. Samarqand viloyati respublika yalpi ichki mahsulotining 6,4 %, sanoat ishlab chiqarishining 4,1 %, xalq iste`mol mollarining 10,0 %, kapital qo`yilmalarning 4,4 %, qurilishning 4,5 %, chakana savdo hajmining 7,3% va pullik xizmatning 10,2 foizini taminlaydi (2012 y). Eksport salohiyati ham ancha zaifatigi 1,4 %, faqat qishloq xo`jaligi mahsulotlarining ulushi aholi ko`rsatkichlaridan yuqoriroq, xolos. SHunday qilib, mintaqa iqtisodiyotini agrar-industrial yo`nalishda baholash mumkin.

Samarqand viloyati ma`muriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlari, 11 shahar va 88 ta shaharchalardan iborat. Bu yerda 124 ta qishloq fuqarolar yig`inlari, 1871 ta qishloq aholi punktlari mavjud. 1-jadvaldan ayonki, viloyat hududidagi eng “qadimiy” qishloq tumanlari 1926 yilda tashkil etilgan Bulung`ur, Narpay, Payariq, Pastdarg`om va Samarqand hisoblanadi. Eslatish o`rinliki, bunday ma`muriy-hududiy maqom aynan shu yilda qabul qilingan. Eng so`nggisi esa viloyat markazi “biqinida” joylashgan Toyloq tumanidir.

Maydoni bo`yicha eng katta tuman Nurobod - 4,86 ming kv.km yoki viloyat hududining 28,9 %. Viloyatning ikkinchi “qanoti” – Qo`shrabod tumani ham ancha

katta - 2,16 ming kv km. Ayni vaqtda Toyloq tumani hududi atigi 0,28 ming kv km (1 - jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati qishloq tumanlarining maydoni va aholisi (2010 y)

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv km, kishi
1	Bulung`ur	29.09.1926	Bulung`ur sh.	0,76	149,9	197,2
2	Jomboy	07.12.1970	Jomboy sh.	0,55	135,2	245,8
3	Ishtixon	18.05.1943	Ishtixon sh.	0,72	195,0	270,8
4	Kattaqo`rg`on	02.02.1929	Payshanba Sh-cha	1,39	219,9	158,2
5	Narpay	29.09.1926	Oqtosh sh.	0,44	170,3	387,0
6	Nurobod	26.11.1975	Nurobod sh.	4,86	116,8	24,0
7	Oqdaryo	25.12.1968	Loish sh-cha	0,37	122,0	329,7
8	Payariq	29.09.1926	Payariq sh.	1,29	203,4	157,7
9	Pastdarg`om	29.09.1926	Juma sh.	0,87	278,2	319,8
10	Paxtachi	12.04.1973	Ziyodin sh-cha.	1,38	121,9	88,3
11	Samarqand	29.09.1926	Gulobod Sh-cha.	0,48	283,3	590,2
12	Toyloq	09.04.1992	Toyloq sh-cha.	0,28	154,7	552,5
13	Urgut	31.12.1964	Urgut sh.	1,12	388,2	346,6
14	Qo`shrabot	03.04.1978	Qo`shrabod sh-cha	2,16	103,5	47,9
	Viloyat bo`yicha	01.15.1938	Samarqand sh.	16,8	3119,8	185,7

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari.

Umuman olganda, har bir qishloq tumanining maydoni o`rtacha 1,20 ming kv km, bu borada geografiylik koeffitsienti 17,3 (demak, hududiy tafovut ancha katta, qutbiylashgan). Iqtisodiy geografik o`rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Samarqand viloyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muhim mavqega ega. Bu yerda mashinasozlik, oziq-ovqat sanoat, paxta, uzum, tamaki etishtirish, xalqaro turizm ixtisoslashgan tarmoqlar hisoblanadi.

Samarqand viloyati qulay geografik o`rinda, respublikamizning markaziy qismida joylashgan. U g`arb va shimoli-g`arbda Navoiy, shimoli-sharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo viloyatlari bilan, janubi-sharqda qisqa masofada Tojikiston

Respublikasining So'g'd (Panjakent rayoni) viloyati bilan chegaradosh. Bugungi Samarqand viloyati qo'shni viloyatlarning tutash rayonlari bilan ham azaldan bog'liq.

1.2.Tabiiy sharoiti va resurslari

Yer usti tuzilishi, asosan, balandlik, tog'oldi va tog'liklardan tashkil topgan. Nisbatan pastqam joylar Kattaqo'rg'on shahridan g'arbroqda hamda chekka janubi-g'arbda bor (Qarnob cho'li). Viloyatning eng baland nuqtalari 2000-2100 metrga etadi. Ular Zarafshon va Nurota tizmalarida, Urgut hamda Qo'shrabot tumanlarining eng chekka qismlarida qad ko'targan. SHuningdek, viloyat orografiyasida Oqtov, Qaroqchitog', G'o'bdintov kabi tog' tizmalar, Paxtachi tumanining o'rtasida Qarnob cho'li atrofida 1000-1100 metr balandliklar ham ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, Samarqand viloyatining sharqiy qismida joylashgan Bulung'ur va Jomboy, markazidagi Samarqand, Toyloq, Oqdaryo, Pastdarg'om, Payariq hamda uning g'arbiy qismidagi Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Paxtachi va Narpay tumanlari, demak, mintaqa tumanlarining ko'pchiligi asosan tekisliklardan tashkil topgan. Bu tekislik janubi-sharqdan shimoli-g'arb yo'nalishida, ya'ni ushbu tarixiy-geografik mintaqaning o'ziga xos o'zagi, ijtimoiy-iqtisodiy "yo'lagi" hisoblangan. Zarafshon daryosi sohillari bo'ylab nishablikka ega. Qolgan qismi, aniqrog'i Urgut, Qo'shrabot va Nurobod tumanlarini tog' va tog'oldi, cho'l hududlariga kiritish mumkin.

Samarqand viloyati tabiiy resurslarga birmuncha boy. Jumladan, Qo'shrabot tumanida oltin (Zarmiton), Paxtachi tumanida uran (Qarnob), Nurobod tumanida vol'fram va molibden (Ingichka), Urgut tumanida marmar, Samarqand tumanida ohak (Ohakli) va boshqalar bor. Biroq bu tabiiy resurs salohiyatidan hozircha to'laligicha foydalanilmayapti. Iqlimi kontinental, namgarchilik qo'shni Navoiy viloyatiga qaraganda biroz ko'proq (300-400 mm). Eng ko'p yog'in Omonqo'ton atrofida - 1000 mm. Asosiy daryo, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining «o'qi» Zarafshon bo'lib, u Samarqanddan sal o'tgandan so'ng ikkiga, ya'ni

Oqdaryo va Qoradaryoga bo`linadi, viloyat chegarasida esa (Xatirchi tumanida) ular yana qo`shiladi. Ikki daryo oralig`i Miyonqal`a deb ataladi.

Zarafshonning doimiy, aytarlicha suv zahiralariga ega bo`lgan irmoqlari deyarli yo`q. Samarqanddan yuqoriroqda, Tojikiston Respublikasining Panjakent tumaniga qo`shni joyda, Zarafshonning tog` oraliqlaridan vodiya chiqish qismidan kanallar boshlanadi. Ulardan eng muhimi qadimgi Darg`om hisoblanadi, aynan ana shu kanaldan Eski Anhor kanali suv oladi va u Qashqadaryo viloyatining CHiroqchi tumanini ham sug`oradi. Kattaqo`rg`on, Oqdaryo, Tusunsoy suv omborlari, Narpay, Bulung`ur kanallari, Beshariq arig`i ham dehqonchilik rivoj topgan hududlarni suv bilan ta`minlaydi. SHu o`rinda ta`kidlash joizki, viloyat iqtisodiyotini shakllanishida mineral resurslarga ko`ra agroiklimiy sharoitlarning roli katta. Bundan tashqari, bu erda turizm va rekreatsiya resurslari mavjud bo`lib, ularning ahamiyati ham sezilarli darajada yuqori. Rekreatsiya resurslari, xususan tog` etaklarida, soy bo`ylarida juda ko`p va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ekoturizm nuqtai nazaridan g`orlar, Urgut chinor va buloqlari diqqatga sazovor joylardir.

1.3.Aholisi va geodemografik vaziyati

1989-2012 yillar maboynida viloyat aholisi 147,8 foizga o`sgan. Aholi soni bo`yicha Urgut tumani etakchi, uning aholisi Kattaqo`rg`on tumanini viloyatga bo`ysunuvchi shu nomli shahar bilan qo`shib hisoblaganda ham ko`proq (388,2 ming kishi). Samarqand tumanida 283,3, Pastdarg`omda 278,2 ming kishi va h.k. Ushbu tumanlar respublikamizda demografik salohiyati eng yuksak qishloq tumanlari sirasiga kiradi. Eng kam aholi soni esa asosan cho`l va tog`liklardan iborat Qo`shrabot (103,5 ming kishi) va Nurobod (116,8 ming kishi) qayd etiladi. O`rtacha bir qishloq tumaniga 188,7 ming kishidan to`g`ri kelgan holda geodemografik vaziyatdagi hududiy tafovut koeffitsienti 3,75 ga teng.

Samarqand viloyati aholisining tabiiy harakati
(1000 kishiga nisbatan)

t/ r	Hududlar	2011 y.			2012 y.		
		Tug`i- lish	o`lim	tabiiy ko`payish	tug`ilish	o`lim	tabiiy ko`payish
shaharlar:							
1	Samarqand sh.	17,8	6,1	11,7	17,0	5,2	11,8
2	Kattaqo`rg`on sh.	25,1	5,7	19,4	22,5	5,4	17,1
tumanlar:							
1	Bulung`ur	29,7	4,9	24,8	26,2	4,0	22,2
2	Jomboy	24,8	4,7	20,1	23,0	3,6	19,4
3	Ishtixon	27,3	3,8	23,5	25,0	3,3	21,7
4	Kattaqo`rg`on	24,2	3,9	20,3	23,8	3,2	20,6
5	Narpay	23,1	4,4	18,7	22,6	3,5	19,1
6	Nurobod	30,4	4,8	25,6	24,7	4,2	20,5
7	Oqdaryo	25,4	4,1	21,3	25,5	3,7	21,8
8	Payariq	27,3	4,5	22,8	25,2	4,2	21,0
9	Pastdarg`om	27,1	4,5	22,6	25,3	4,1	21,2
10	Paxtachi	22,4	4,8	17,6	22,0	4,5	17,5
11	Samarqand	22,7	5,1	17,6	21,9	4,7	17,2
12	Toyloq	27,2	5,3	21,9	23,7	4,1	19,6
13	Urgut	32,0	4,2	27,8	27,0	3,6	23,4
14	Qo`shrabot	30,2	4,3	25,9	24,7	4,2	20,5
	Jami viloyat	25,6	4,7	20,9	24,2	4,3	19,9

Jadval O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadvalda keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, viloyatda 2012 yilda tug`ilish 24,2, o`lim 4,3 va tabiiy ko`payish 10,9 promilleni tashkil etgan. Bu borada viloyat respublika o`rtacha ko`rsatkichlaridan ancha yuqori turadi (O`zbekistonda bu ko`rsatkichlar, mos holda, 23,3; 4,7 va 18,6 ‰). Tug`ilish darajasi Urgut, Bulung`ur, Nurobod va Qo`shrabot tumanlarida yuqori uning eng past ko`rsatkichi qishloq tumanlari ichida nisbatan urbanizatsiyalashgan Samarqand tumanida qayd etilgan. Samarqand shahrining o`zida tug`ilish 17,0; o`lim 5,2 va tabiiy ko`payish 11,8 ‰ (2012 y.). Aholi sonining o`sishida migratsiyaning roli katta emas. 1997-2000 yillarda shahar va qishloq joylarning har biri o`rtacha bir yilda 3,0-3,7 ming kishidan «yutqazgan», ya`ni migratsiya qoldig`i salbiy bo`lgan. Eng so`nggi yillarda ham vaziyat deyarli shunday; barcha qishloq tumanlarida migratsiya

natijasi salbiy, eng ko'p manfiy migratsiya qoldig'i Paxtachi va Ishtixon tumanlarida, ya'ni qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, aholisi zich hududlarda 2008 yilda bu ko'rsatkich minus 9,7 va 5,0 promilleni tashkil qilgan. Aholi zichligi o'rtacha 1 km² maydonga 185,7 kishi; eng katta ko'rsatkich Samarqand qishloq tumani (590,2), Toyloq (552,5), Narpay (387,0) va Pastdarg'omda (319,8). Tog'oldi va cho'l mintaqalarining aholisi esa nihoyatda siyrak. Masalan, Qo'shrabot va Nurobod tumanlari viloyat hududining 40 foizini egallagan holda, uning atigi 7,1 foiz aholisini jamlaydi, xolos.

Urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi 2009 yilning "iliq urbanizatsiya bahoridan" so'ng bir yilda 25,1 dan 37,4 foizga ko'tarildi. Ammo bu ham uncha yuqori ko'rsatkich emas va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi nuqtai nazaridan qaraganda, real holatni aks ettiradi. Hozirda Samarqand viloyati Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridan so'ng oxirdan 3-o'rinni egallaydi. Albatta, bu Samarqanddek dunyoga mashhur, Sohibqiron Amir Temur imperiyasining poytaxti joylashgan hudud uchun ancha past ko'rsatkich sanaladi.

Viloyatda jami 11 ta shahar va 88 ta shaharchalar mavjud. Samarqand shahar kengashida 400 mingga yaqin, Kattaqo'rg'onda 77 ming, Urgutda 60, Oqtoshda 37, Bulung'urda 27, Payshanbada 22 ming kishidan aholi istiqomat qiladi. Qolgan shahar va shaharchalar kichik yoki mayda shaharchalar sinfiga mansub. Jami shaharchalarning 76 tasi 2009 yilda "Qishloq" Davlat dasturiga binoan tashkil topgan. Ularda hammasi bo'lib 384,0 ming aholi bor. Eng ko'p shaharchalar Pastdarg'omda (11 ta), Ishtixon (11 ta), Payariq (9 ta) tumanlarida, eng oz qismi Bulung'urda (3 ta), Qo'shrabot, Narpay va Samarqand tumanlarida (2 tadan) va Nurobod tumanida (1 ta - Nurbuloq) viloyat ma'muriy xaritasidan joy olgan.

Samarqand viloyati va, xususan Urgut tumanida yirik qishloqlar ko'p. Yangi shaharchalar orasida bunday demografik salohiyatga ega bo'lganlari Urgut tumanida O'ramas (20,4 ming), G'o's (25,6 ming), Jartepa (20,4 ming), Ispanza (20,0 ming), Toyloq tumanida Toyloq (12,6 ming), Pastdarg'om qishlog'ida (10,2 ming kishi) va h.k. Garchi Andijon aholi soniga ko'ra Samarqanddan katta bo'lsada (Andijonda 375,4 ming, Samarqandda 370,0 mingdan ziyodroq), respublikamizning

an'anaviy "ikkinchi shahri", uning dastlabki poytaxti Samarqand hisoblanadi. SHaharning ta'sir zonasida yirik Samarqand aglomeratsiyasi shakllangan. Aglomeratsiya tarkibiga Urgut, Jomboy, Bulung'ur, Xeshrav, Kimyogarlari, Farhod, Juma, Loish, CHelak kabi "yo'ldosh" shahar manzilgohlari kiradi.

Samarqand viloyatida jami 1873 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Bu borada u respublikamizda birinchi o'rinda. Qishloqlarning ko'pchiligi va kattalari intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda, Samarqand shahri atrofida joylashgan. SHuningdek, tog' oralig'idan oqib chiqqan soylar ham o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyat kasb etadi. Bu yerda qishloqlar, soy gidrorejimiga mos holda zanjirsimon o'rnatilgan. Tog' oldi va cho'l hududlarida esa (Qo'shrabot va Nurobod tumanlari) qishloqlar siyrak va uncha katta emas.

Mintaqa o'zining demografik vaziyatiga binoan katta mehnat resurslariga ega. 01.01.2010 yil ma'lumotlariga ko'ra, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1726 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 1295 ming, iqtisodiyotda band bo'lganlar esa 1211 ming kishi. 2009 yil davomida jami 91,7 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan (asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda). Ko'rilaётgan yilda ish so'rab mehnat bo'limlariga 64,3 ming kishi murojaat qilgan, ularning 59,0 ming kishisi ishga joylashtirilgan. Umuman olganda esa, respublikamizning boshqa hududlarida bo'lganidek, mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanish muammosi bu yerda ham dolzarbdir.

1.4. Xo'jaligiga umumiy tavsif

Samarqand viloyatining xo'jaligi agrar-industrial yo'nalishda bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va ijtimoiy sohalar, jumladan turizm ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa yalpi hududiy mahsuloti tarkibida sanoat 10,7 %, qurilish 5,7 %, qishloq xo'jaligi 34,3 %, transport va aloqa 6,1 %, savdo va umumiy ovqatlanish 6,4 va soliqlar 4,7 foizni tashkil qiladi (2009 y.). Qishloq xo'jaligining hissasi bo'yicha viloyat Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridan keyingi 4-o'rinda turadi. Bozor islohotlarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanmish kichik biznesga, investitsiya va qo'shma korxonalar faoliyatiga katta e'tibor berilmoqda.

01.01.2010 yil holatiga ko'ra, viloyatda jami 36,834 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni mavjud bo'lgan: ularning 93,2 foizi turli xil mikrofirmalardan iborat. Kichik biznesning ko'pchiligi qishloq xo'jaligida (74,7 %) hamda savdo va umumiy ovqatlanishda (10,4%) tashkil qilingan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalari viloyatning barcha tuman va shaharlarida mavjud. Ularning ko'proq qismi Samarqand shahri, Urgut, Pastdarg'om va Bulung'ur tumanlarida qayd etiladi, Nurobod va Qo'shrabotda esa biroz kamroq. Kichik biznes iqtisodiyotda band bo'lganlarning 81,1 %ni tashkil qiladi, 35,0 foiz yalpi hududiy mahsulotni etkazib beradi; uning eksportdagi ulushi 67,3, importda 45,3 foizga barobar. Alohida tarmoqlar bo'yicha: sanoatda 24,8 %, qishloq xo'jaligida 97,6 %, investitsiya hajmida 32,1 %, qurilish ishlarida 76,9 %, chakana savdo aylanmasida 58,0 %, aholiga pullik xizmat ko'rsatishda 67,0 %, yuk tashishda 59,7 % va yo'lovchi tashishda 81,3.

2012 yil davomida jami kiritilgan investitsiyalar hajmi 551,4 mlrd so'mga teng bo'lgan, ularning yarmiga yaqini Samarqand shahriga to'g'ri keladi. Qishloq tumanlari orasida Urgut, Pastdarg'om oldinda, Oqdaryo, Narpay, Toyloq tumanlarining investitsion salohiyati pastroq. Jami kiritilgan investitsiyalarning 9,6 foizi chet el investitsiyalari va kreditlaridir. Bunday investitsiyalar asosan viloyat markazi Samarqandga, shuningdek, Urgut va qisman Samarqand va Jomboy tumanlariga kiritilgan. Qurilish geografiyasida, Samarqand shahridan tashqari, Samarqand hamda Urgut tumanlari peshqadam. Bu hududlarda turli xil ob'ektlar, xususan, ishlab chiqarish va infratuzilma shaxobchalari, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalarini qurish ishlari bajarilgan.

Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy soni 184, ularning 177 tasi 2012 yilda faoliyat ko'rsatgan. Birgina tahlil etilayotgan yilda 17 ta qo'shma korxona tashkil etilgan. Bu korxonalar viloyat eksport hajmining 13,7 foizini ta'minlaydi. Bu borada, ayniqsa, Yaponiya bilan hamkorlikda barpo etilgan Samkochavto qo'shma korxonasining ahamiyati katta. Jami qo'shma korxonalarning 99 tasi viloyat markazida, qishloq tumanlari orasida esa faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar Urgutda 22 ta, Samarqand tumanida 17 ta, Jomboyda 11

ta. Ayni vaqtda Payariq va Nurobod tumanlarida ular atigi bittadan, Qo`shrabotda esa umuman yo`q. Eksport hajmida Samarqand shahri-45,9 %; shuningdek, Pastdarg`om (37,0 %) tumani qo`shma korxo-nalari ham salmoqli ishlarni amalga oshiradi.

Sanoati. Samarqand viloyati sanoati ko`p tarmoqli xususiyatga ega. Bu erda, ayniqsa, oziq-ovqat, mashinasozlik, engil, kimyo, farfor sanoati yaxshiroq rivojlangan. Mustaqillik yillarida qurilgan avtomobilsozlik zavodi viloyat iqtisodiyotini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. SHu bilan birga, QK tamaki, farfor idishlar, engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqirishda ham faol ishtirok etmoqda; hammasi bo`lib 2474 ta, shu jumladan 36 ta yirik sanoat korxonalari bor, ularda 28,7 ming ishchi xodim xizmat qiladi (2000 yilda bu raqam 50 ming kishi atrofida bo`lgan).

2012 yil ma`lumotlariga ko`ra, oziq-ovqat sanoati jami sanoat mahsulotining 46,9 foizini bergan. Ikkinchi o`rinda engil sanoat-21,0 foiz, uchinchi o`rinda mashinasozlik va metalni qayta ishlash-12,0 foiz, to`rtinchida un-krupa va omuxta em ishlab chiqarish – 6,7 foiz. Kimyo hamda qurilish materiallari sanoat tarmoqlarining mavqei ham ancha sezilarli. Viloyatda shisha-chinni idishlar ishlab chiqarish, engil (pillakashlik va ip gazlama ishlab chiqarish), oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining hududiy mujassamlashuv darajasi yoki ixtisoslashuv indeksi yuqori.


Samarqand viloyatida mamlakatimizning boshqa viloyatlarida yo`q yoki juda kam uchraydigan sanoat tarmoqlari mavjud. Ular jumlasiga lift, kino apparaturalari, choy qadoqlash, sovutgich mashinalar, avtobus, tamaki fermentatsiya kabi zavodlar kiradi. Biroq, viloyatning elektr energetika hamda qurilish bazasi sustroq, ip gazlama ishlab chiqarish ham endi rivojlanmoqda (“Samteks”-Jomboyda).

Bir yilda taxminan 1,5-2,0 mln. m² ip gazlama, 13-15 ming tonna o`simlik yog`i, 10-12 ming tonna tamaki mahsulotlari, 78-80 ming tonna paxta tolasi, 15-16 ming dona sovutgich va uzatkichlar ishlab chiqariladi. 2009 yilda 2039 ta zamonaviy yuk mashinalar va avtobuslar «SamAvto» qo`shma korxonasining konveyerlaridan chiqdi. YAqin kelajakda bu raqam yanada ko`payadi. Mazkur korxonada respublikamizda ilk

bor mototsikl ishlab chiqarish ham yo`lga qo`yilgan (115 dona). SHu bilan birga, 2012 yilda viloyatda 91,7 ming t omuxta em, 3,9 ming t xo`jalik sovuni, 25903 mln. so`mlik mebel, 126,2 mln. shartli banka meva-sabzavot konservalari, 9,7 ming t go`sht va go`sht mahsulotlari, 11,4 ming t sut mahsulotlari, 139,4 ming t. un ishlab chiqarilgan. Samarqand shahrida yirik pillakash-lik va ipak gazlama korxonasi ham bor.

1-rasm

Самарқанд вилояти саноатининг тармоқлар таркиби (2009 й.)



Asosiy sanoat korxonalari Samarqandning o`zida joylashgan. Bu erda lift, avtomobil, sovutgich, shisha-chinni idishlar, kimyo, konserva, vino zavodlari, ipak gazlama, tamaki, choy qadoqlash fabrikalari kabi korxonalar mavjud. Kattaqo`rg`onda mashinasozlik, yog`, paxta tozalash (respublikada eng to`ng`ich) zavodlari, Jomboyda yirik don mahsulotlari kombinati va «Samteks», Bulung`urda vino zavodi bor. Samarqandning «yo`ldosh» shaharchalarida Xishrov GES, superfosfat zavodi joylashgan. Qishloq tumanlari markazlarining ko`pchiligida paxta tozalash zavodi, Ingichkada tog`-kon korxonasi ishlab turibdi.

Sanoatning hududiy tashkil qilish tizimida, eng avvalo, Samarqand va Kattaqo`rg`on tumanlari ajralib turadi. Umuman olganda, Samarqand viloyat sanoat

Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
(jamiga nisbatan foiz hisobida, 2011 y.)

t/r	Hududlar	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Xalq iste'mol mollari	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	CHakana savdo	Pullik xizmat
<i>shaharlar:</i>								
1	Samarqand sh.	54,6	0,05	68,3	40,3	25,5	37,9	55,2
2	Kattaqo'rg'on sh.	2,9	0,5	2,7	0,7	3,2	6,4	3,8
<i>tumanlar:</i>								
1	Bulung'ur	1,2	9,0	0,8	4,4	3,1	4,2	3,0
2	Jomboy	4,2	6,0	4,6	3,3	4,1	2,4	2,5
3	Ishtihon	2,6	9,1	0,5	4,1	4,0	2,9	2,7
4	Kattaqo'rg'on	2,7	7,0	1,5	4,3	5,8	3,0	3,3
5	Narpay	5,3	4,1	3,5	3,2	4,2	3,0	2,8
6	Nurobod	0,2	2,6	0,4	4,2	5,2	1,8	1,3
7	Oqdaryo	2,2	5,4	0,8	2,4	4,9	3,0	1,6
8	Payariq	3,6	9,7	0,9	3,9	5,8	5,4	2,3
9	Pastdarg'om	4,4	8,6	2,0	7,0	6,3	5,8	3,9
10	Paxtachi	2,8	5,1	1,1	3,3	4,6	3,3	2,0
11	Samarqand	5,4	8,5	5,4	4,2	7,9	7,6	6,5
12	Toyloq	2,6	9,0	2,3	3,1	4,3	2,6	2,2
13	Urgut	4,4	11,1	4,4	8,2	7,4	9,3	5,7
14	Qo'shrabot	0,5	4,1	0,8	3,5	3,5	1,4	1,1
	Jami viloyat	100	100	100	100	100	100	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

mahsulotining yarmidan ko'pini beradi, Kattaqo'rg'onning bu sohadagi ko'rsatkichi 2,9 foizga barobar (3-jadval). Qishloq tumanlari orasida Jomboy, Narpay, Samarqand, Urgut, Pstdarg'omning sanoat salohiyati kattaroq. Qolgan tumanlar, ayniqsa, Nurobod (0,2 %) va Qo'shrobotda (0,5 %) hozircha sanoat ishlab chiqarishi yaxshi rivojlanmagan. 2011 yilda jami 884,3 mlrd. so'm hajmida turli xil xalq iste'mol mollari ishlab chiqarilgan, ularning 70,7 foizini nooziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan 9,5 foizini engil sanoat tashkil qiladi. Vino-aroq va pivo ishlab chiqarishning ulushi 2,9 %. Aholi jon boshiga 285,2 ming so'mlik XIM to'g'ri keladi. Xalq iste'mol mollarinin 2/3 qismidan ko'prog'i Samarqand shahrida, 5,4% Samarqand tumanida, 4,6 % Jomboyda, 4,4 % Urgutda ishlab chiqariladi. Ayni paytda Qo'shrabot, Nurobod, Payariq, Oqdaryo, Ishtixon, Bulung'ur qishloq tumanlarining bu boradagi ulushi 1,0 foizga ham etmaydi (3-jadval).

Qishloq xo'jaligi. Samarqand viloyati respublikamiz agro-iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. U mamlakatning 1/10 qismidan ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotini beradi. Mintaqada, qolgan viloyatlardan farq qilib, qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli. Masalan, Samarqand viloyatida paxtachilik va g'allachilikdan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik, tamaki etishtirish ancha yaxshi rivojlangan. Uzumchilik bo'yicha u Toshkent viloyati bilan birgalikda O'zbekistonda etakchi hisoblanadi. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, qo'ychilik, qorako'l qo'ylarini boqish (asosan, Qarnob cho'lda) katta ahamiyatga ega. Dehqonchilikning jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibi 59,3%, fermer xo'jaliklari 28,2 % mahsulotlarni etkazib beradi. Samarqand viloyatida jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni 1222 ming ga yoki viloyat umumiy hududining 73,3 % i demakdir. Nurobod (363 ming ga), Qo'shrabot (192 ming ga), Paxtachi (109 ming ga) va Payariq tumanlari (103 ming ga) ajralib turadi (4-jadval). Sug'oriladigan erlar 308 ming ga bo'lib, ular umumiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning 25,2 foizini tashkil qiladi (qishloq xo'jaligi er fondidan intensiv foydalanish koeffitsienti ham shu darajada).

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sug'oriladigan yerlar ayniqsa, Qo'shrabot, Nurobod va Paxtachi tumanlarida juda oz miqdorda, Narpay, Oqdaryo, Toyloq,

Pastdarg'om tumanlarida esa ko'proq. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning 35,7 foizi ekin ekiladigan erlar va 59,4 foizi pichanzor hamda yaylovlardan iborat.

4 - jadval

Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi (2010 y.)

Qishloq tumanlari	Maydoni, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni, ming ga	SHu jumladan sug'oriladigan yerlar, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga nisbatan, foizda			
				ekin yerlar	ko'p yillik daraxtzorlar	bo'z yerlar	Pichanzor va yaylovlar
Bulung'ur	76,5	54,3	24,6	49,9	18,6	0,2	31,2
Jomboy	54,7	31,4	24,0	78,4	7,7	0,3	13,6
Ishtixon	72,0	48,7	25,0	65,2	12,0	0,3	22,4
Kattaqo'rg'on	139,3	98,6	28,3	45,0	2,6	2,9	49,4
Narpay	44,2	28,4	22,6	77,7	6,6	0,2	15,5
Nurobod	486,3	362,6	6,3	18,1	0,07	-	81,8
Oqdaryo	37,5	23,5	22,1	83,7	10,6	2,4	3,3
Payariq	128,7	103,0	35,3	54,0	4,0	1,1	40,9
Pastdarg'om	87,0	58,2	46,7	79,8	7,1	0,3	12,8
Paxtachi	137,6	108,5	19,2	18,3	1,6	0,1	80,0
Samarqand	48,1	26,3	14,3	36,9	22,4	-	40,7
Toyloq	27,7	15,4	13,0	54,6	29,9	-	16,6
Urgut	112,0	71,1	24,0	28,8	10,8	0,08	60,3
Qo'shrabot	216,0	191,6	3,0	20,8	0,6	0,03	78,5
Jami viloyat	1667,3	1222,0	308,2	35,7	4,5	0,4	59,4

Manba: "Al'bom sel'skoxozyaystvennyx kart Respubliki Karakalpakstan i oblastey Uzbekistana" - Tashkent, 2010.


Pastdarg'om, Jomboy, Oqdaryo va Narpay tumanlarida yuqori, pichanzor va yaylovlar esa Nurobod, Paxtachi va Qo'shrabot qishloq tumanlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Jami ekin maydonlari 377 ming ga (2000 yilda 403 ming ga) bo'lgan. SHundan 179 ming gektari boshoqli ekinlar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda), 99 ming ga paxta, 7,6 ming ga tamaki, 26,1 sabzavot va 33,2 ming gektari em-hashak etishtirish bilan band. 2011 yilda 142 ming gektarga bug'doy ekilgan, yalpi hosil 709 ming tonna, hosildorlik 49,9 ts/ga. Paxta maydonlaridan

238 ming t paxta xom ashyosi yoki har bir gektar erdan 24,0 tsentnerdan hosil olingan.

Tamakichilik Urgut tumanida tashkil etilgan – yalpi hosili 12307 tonna, hosildorligi 16,2 s/ga. Boshqa texnika va moyli ekinlardan masxar (10,0 ming ga), kungaboqar (2,0 ming ga), shuningdek zig`ir va kunjut ham ekiladi. Kartoshka 10,0 gektardan ko`proq erni egallaydi, yalpi hosil 340 ming t. Uzum 31,0 ming gektarda, o`rtacha bir yilda 333 ming tonna etishtiriladi.

2-rasm

Samarqand viloyati ekin maydonining tarkibiy tuzilishi



Viloyat bo`yicha yirik shoxli mollar soni 1118 ming boshga yaqin (respublikada 1-o`rinda turadi), qo`y va echkilar 1544 ming bosh. Bir yilda etishtirilgan qorako`l teri 87 ming donadan ziyod, pilla 2500-2600 tonnani, jun 3036 t, sut 728 ming t, go`sht (tirik vaznda) 171 ming tonnani tashkil etadi. Intensiv qishloq xo`jaligi asosan viloyatning markaziy hududlarida yaxshi rivojlangan. Umuman, qishloq xo`jalik mahsulotlarining qiymati bo`yicha Urgut (11,1 foiz), Payariq (9,7 %), Ishtixon (9,1 foiz), Bulung`ur va Toyloq (9,0 foizdan) tumanlari oldinda turadi; Kattaqo`rg`on, Samarqand tumanlarining mavqelari ham yaxshiroq. Ayni vaqtda Nurobod tumaniga viloyat qishloq xo`jalik mahsulotining 2,6 foizi to`g`ri keladi, xolos (3-jadval). Qishloq xo`jaligining ixtisoslashuvi quyidagicha: Urgut tumanida tamakichilik, bog`dorchilik, uzumchilik, Qo`shrabot va Nurobodda, asosan, chorvachilik, Bulung`urda bog`dorchilik va uzumchilik, kartoshka etishtirish, Samarqand, Urgut va Toyloq tumanlarida shahar atrofi qishloq xo`jaligi va h.k. Paxta sug`orma dehqonchilik rayonlarida (Pastdarg`om,

Paxtachi, Ishtixon, Narpay, Payariq, Oqdaryo va b.), g`alla paxta bilan birgalikda, shuningdek, lalmikor yerlarda, tog` etaklarida etishtiriladi. Viloyat agroiqtisodiyotida chorvachilik ham katta o`ringa ega. Uning geografiyasida go`sht etishtirish bo`yicha Urgut tumani keskin ajralib turadi – mintaqa jami go`sht mahsulotining 16,6 foizini beradi (5-jadval).

5-jadval

Samarqand viloyati qishloq tumanlarida ayrim chorvachilik mahsulotlarini
etishtirish (2010 yil, jamiga nisbatan foizda)

t/r	Qishloq tumanlari	Go`sht	Sut	Tuxum
1	Bulung`ur	6,8	5,2	2,3
2	Jomboy	2,5	5,6	5,1
3	Ishtixon	7,9	11,7	4,0
4	Kattaqo`rg`on	8,7	11,5	3,6
5	Narpay	2,1	4,4	0,5
6	Nurobod	4,8	2,9	0,6
7	Oqdaryo	5,4	5,0	2,0
8	Payariq	9,7	9,8	1,8
9	Pastdarg`om	8,6	7,5	2,5
10	Paxtachi	5,6	5,5	2,2
11	Samarqand	6,6	6,1	65,3
12	Toyloq	7,2	7,7	2,5
13	Urgut	16,6	11,9	3,9
14	Qo`shrabot	6,1	4,1	2,4

Jadval Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Sut borasida ham Urgut, shuningdek Ishtixon va Kattaqo`rg`on tumanlari ixtisoslashgan hisoblanadi. Tabiiyki, parrandachilik, jumladan tuxum etishtirish, odatda, yirik shaharlar atrofida rivojlangan bo`ladi. SHu bois, mazkur chorvachilik mahsulotining 2/3 qismi birgina Samarqand tumanida tayyorlanadi. Boshqa viloyatlarda bo`lganidek, Samarqandda ham fermer xo`jaliklari ko`payib bormoqda. 2010 yil 1 yanvar holatida bu yerda faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklari soni jami 11749 ta, ularga 495,4 ming ga yer

Samarqand viloyati fermer va dehqon xo'jaliklari bo'yicha ayrim ma'lumotlar
(01.01.2010 y. holatiga)

t/r	Qishloq tumanlari	Fermer xo'jaliklari				Dehqon xo'jaliklari			
		soni	birikti ril gan yer maydoni, ming ga	1 ta fermerga to'g'ri keladigan yer, ga	yalpi q/x mahsuloti-dagi ulushi, foizda	soni	birikti ril gan yer maydoni, ming ga	1 ta dehqon xo'jaligi ga to'g'ri keladigan yer, ga	yalpi q/x mahsuloti-dagi ulushi, foizda
1	Bulung'ur	1412	37,8	26,8	52,4	25861	5,5	0,2	47,6
2	Jomboy	518	31,0	59,9	39,2	25058	6,2	0,2	58,7
3	Ishtihon	841	38,1	45,4	28,6	35240	7,8	0,2	71,0
4	Kattaqo'rg'on	647	55,3	85,4	26,9	45321	8,1	0,18	68,0
5	Narpay	485	29,7	61,2	45,9	32879	5,4	0,16	53,8
6	Nurobod	680	70,1	103,1	29,5	17058	6,6	0,4	64,8
7	Oqdaryo	740	22,1	29,9	36,6	21722	4,5	0,2	62,1
8	Payariq	779	55,7	71,5	37,4	34865	6,5	0,19	61,5
9	Pastdarg'om	1125	55,3	49,1	41,6	50945	8,1	0,16	57,6
10	Paxtachi	466	23,7	50,9	35,2	28351	5,1	0,18	64,1
11	Samarqand	1104	15,8	14,3	29,8	41812	3,6	0,08	51,6
12	Toyloq	1258	12,7	10,1	36,8	30743	3,6	0,12	62,4
13	Urgut	1346	30,8	22,9	21,6	56353	7,8	0,14	78,4
14	Qo'shrabot	348	17,2	49,3	18,5	14466	4,8	0,33	81,0
	Jami	11749	495,1	42,2	34,2	512277	86,1	0,17	63,1

Jadval Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

biriktirilgan va 187,4 ming kishi mehnat qiladi (6-jadval). Har bir fermerga o'rtacha 42,2 ga yer va 16 kishidan ishchilar to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklari asosan dehqonchilik rivojlangan hududlarda ko'p tashkil qilingan. Masalan, Bulung'urda ularning soni 1412 ta, Urgut tumanida 1346 ta, Toyloq tumanida 1258 ta; ayni paytda Qo'shrabotda 348 ta, Paxtachida 466 ta, Narpayda 485 ta fermer xo'jaliklari bor. Yer maydoni bo'yicha esa Nurobod (103,1 ga 1 ta fermerga), Kattaqo'rg'on (85,4 ga), Payariq (71,5 ga), Narpay (61,2 ga) etakchilik qiladi. Samarqand va Toyloq tumanlarida tashkil etilgan fermerlarga atigi 10-14 gektardan yer to'g'ri keladi.

Dehqon xo'jaliklarining soni 512,3 mingta, biriktirilgan er maydoni 86,1 ming ga, yalpi mahsulotdagi hajmi 63,1 %. Fermer va dehqon xo'jaliklari o'rtasida o'ziga xos "mehnat taqsimoti" mavjud. Bu qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga, hududlarning er bilan ta'minlanganligiga, aholi va mehnat resurslariga bog'liq. Masalan, jami ekin maydonining 80,6 foizi fermer va 16,7 foizi dehqon xo'jaligiga to'g'ri kelgani holda, fermer xo'jaliklarida atigi 30 foizga yaqin mahsulot yaratiladi. Fermer xo'jaliklarining ekin maydoni g'alla, barcha texnika va moyli ekinlarda, uzumchilikda sezilarli darajada ustunlikka ega, paxtaning deyarli 100 foizi ushbu mulkchilik shakliga to'g'ri keladi. Sabzavot va poliz ekinlarida, em-hashak maydonlarida bu ustunlik kamroq, kartoshka, shuningdek, go'sht, sut, tuxum, jun, pilla etishtirishda, chorva mollari sonida dehqon xo'jaligi asosiy o'rinda turadi. Qorako'l terisini tayyorlash esa qishloq xo'jalik korxonalari va dehqon xo'jaligi zimmasiga tushadi.

Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi. Ijtimoiy sohalar, eng avvalo, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlari iqtisodiy taraqqiyotning negizi hisoblanadi, ularning asosi esa ijtimoiy infratuzilma bilan ijtimoiy sohalarni ajratish to'g'riroq bo'ladi. Sababi ko'pincha ikkala tushuncha ma'nodosh, ya'ni sinonim sifatida e'tirof etiladi. Vaholanki, bunday emas, har qanday infratuzilma, ichki tuzilma ("poydevor") bevosita moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratmaydi, balki buning uchun shart-sharoit muhayyoqiladi. SHu bois, ijtimoiy soha ob'ektlari, ularning mavjudligi, zamonaviy darajada jihozlanganligi, xizmat ko'rsatish

o`rinlari yoki “sig`imi” infratuzilma bo`lsa, ta`lim olish, sog`liqni saqlash kabilar esa bevosita xalq xo`jalik tarmoqlaridir.

Samarqand viloyatida nomoddiy ishlab chiqarishda jami ishchi va xizmatchilarning 33,1 foizi (401,5 ming kishi) band. Jumladan, 2009 yilda chakana savdo aylanmasi 1195660 mln. so`m yoki aholi jon boshiga 385,8 ming so`mni tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich qishloq tumanlari darajasida ma`lum hududiy farqlarga ega. CHunonchi, chakana savdo aylanmasi, bir kishiga hisoblaganda Bulung`ur (338,1 ming so`m), Paxtachi (323,9 ming so`m), Payariq (322,1 ming so`m) tumanlarida yuqoriroq, Ishtixon, Kattaqo`rg`on, Qo`shrabot va Toyloq tumanlarida esa past (Toyloqda eng oz ko`rsatkich - atigi 20,6 ming so`m). Bu borada shuni e`tiborga olish lozimki, katta shaharlar atrofida qishloq tumanlari o`zlarining ijtimoiy sohalarga bo`lgan ehtiyojlarini ko`proq qo`shni markazlarda qondiradilar. Odatda, shaharlarda bunday soha ob`ektlari ham ko`p, xizmat sifati ham yaxshiroq. Aynan ana shunday ob`ektiv sabablar bilan Toyloq va qisman Kattaqo`rg`on tumanlarida qayd etilgan past ko`rsatkichlarni izohlash mumkin. SHu bilan birga, Samarqand va Kattaqo`rg`on shaharlarida aholi jon boshiga to`g`ri keladigan chakana savdo aylanmasining o`ta kattaligi (1136,4 va 994,1 ming so`mdan) ham ushbu qonuniyatni asoslab beradi.

3-jadval ma`lumotlariga qaraganda, chakana savdo aylanmasining 37,9 foizi Samarqandga va 6,4 foizi Kattaqo`rg`on shaharlariga to`g`ri keladi. Qishloq joylar miqyosida Urgut (bu yerda savdo an`anaviy holda rivoj topgan), shuningdek, Pastdarg`om va Payariq tumanlari ajralib tursa, Qo`shrabot va Nurobod tumanlari eng oxirgi o`rinlarni egallaydi.

Aholiga ko`rsatilgan pullik xizmatlar holati va geografiyasi ham taxminan shu tarzda. CHunonchi, viloyatda ko`rsatilgan pullik xizmatlar hajmining 55,2 foizi birgina Samarqand shahrida amalga oshirilgan; Samarqand (6,5 %) va Urgut (5,7 %) tumanlarida ham bu ko`rsatkich yuqoriroq, Oqdaryo, Nurobod va Qo`shrabotda past. Har bir kishiga hisoblaganda viloyatda o`rtacha 207,2 ming so`mlik pullik xizmat qayd etiladi. Samarqand va Kattaqo`rg`on shaharlarini hisobga olmaganda, bu daraja Samarqand, Bulung`ur va Jomboy tumanlarida yuqori: mos holda 147,8;

131,6; 120,8 ming so'm. Viloyatda har bir kishiga 14,2 kv m uy-joy to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Toyloq (18,6 m²), Samarqand (19,1 m²), ya'ni bevosita viloyat markaziga tutash hududlarda yaxshiroq. Uy-joy bilan ta'minlanish darajasi nisbatan past hududlar Kattaqo'rg'on shahri (11,8 m²) va Ishtixon tumani (12,2 m²) hisoblanadi.

Mintaqa aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi, ayniqsa, dolzarbdir. SHu nuqtai nazardan yondoshganda yuqori ko'rsatkich Tayloq (98,3 %), Samarqand (97,4%), Kattaqo'rg'on (95,2 %), Paxtachi (90,8 %) tumanlarida qayd etiladi. Nochor vaziyat esa Nurobod (44,7 %) va Qo'shrabot (37,2 %) tumanlarida kuzatiladi. Aynan shu hududlarga "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini amalga oshirishda jiddiy e'tibor qaratish lozim. Sog'liqni saqlash tizimida jami 94 muassasa mavjud, ularning ko'pchiligi byudjet tasarrufida. Har 10000 kishiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari 45,6 ta. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari 589 ta, har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan quvvati yoki sig'imi bir smenada 117 qatnovni tashkil qiladi. Bunday nisbiy ko'rsatkichlar vrachlar soni bo'yicha 28 va o'rta tibbiyot xodimlari soni bo'yicha - 86 kishiga teng.

Fel'dsherlik, akusherlik punktlari 62 ta, qishloq vrachlik punktlari 102 ta bo'lib, o'rtacha bitta qishloq tumanida 7,3 tadan QVP joylashgan. Mintaqada aholi salomatligini tiklashga qaratilgan ko'plab rekreatsiya ob'ektlari - oromgoh va sihatgohlar tashkil etilgan. Jumladan, Kattaqo'rg'on tumani, Nurobod (Ibn Sino nomidagi sanatoriya), shuningdek, Bulung'ur, Urgut va boshqa tumanlarda ham bor. SHu o'rinda, Bulung'ur va unga tutash bo'lgan hududlarning o'ziga xos nozogeografik vaziyatini qayd etish zarur. Ba'zi yillarda, asosan toza ichimlik suvining etish-masligi sababli, bu yerda vaqti-vaqti bilan yuqumli kasalliklar, masalan, dizenteriya, vitiligo kabilar uchraydi. Umuman olganda, viloyat aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 86,2 %, tabiiy gaz bilan 84,7 %. Mazkur masalaning hal etilishi, xususan, tog' va cho'l hududlarda joy-lashgan qishloq tumanlari uchun dolzarbdir.

Xalq ta'limi ham eng muhim ijtimoiy sohalardan biridir. Samarqand viloyatida 2009 yilda jami 659 ta maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lgan.

Ulardagi o`rinlar soni 66,6 ming kishi. Boshqacha qilib aytganda, har bir muassasaga o`rtacha 101 kishidan to`g`ri keladi. Tabiiyki, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etish cho`l va tog`liklardan iborat qishloq tumanlarida (Qo`shrabot, Nurobod, Paxtachi) ancha muammolarga duch keladi. Sababi bu hududlarda aholi siyrak joylashgan, qishloqlari esa uncha katta emas.

Umumta`lim maktablari 1218 ta, o`quvchilar soni 575,4 ming kishi; bir maktabda o`rtacha 472 tadan o`quvchi ta`lim oladi. Bu raqam ayrim boshqa mintaqalarga taqqoslaganda, uncha katta emas. SHu o`rinda Samarqand viloyatining nisbatan “serqishloqligini” unutmaslik lozim. Agar jami aholining taxminan 22-23 foizini maktab yoshidagilar tashkil qilishi e`tiborga olinsa, har birida 500 kishigacha yoki 250 kishigacha ega bo`lgan qishloqlarda ta`lim muassasalarini tashkil etish qiyinchiliklari o`z-o`zicha ayon bo`ladi.

Viloyatda jami 14 ta akademik litseylar mavjud, o`quvchilar soni 11,5 ming kishi. Ular, odatda, oliy o`quv yurtlari qoshida tashkil etilgan. Kasb-hunar kollejlari 156 ta, o`quvchilar 156,9 ming nafar. Kollejlar mintaqaning barcha shahar va qishloq tumanlarida bor, ularning yo`nalishlari esa joylarning demografik vaziyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xo`jaligining ixtisoslashuviga muvofiq holda tashkil qilingan.

Oliy o`quv yurtlari 7 ta va bu borada Samarqand shahri Toshkent shahridan keyingi respublikamizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash markazi sanaladi. Jami talabalar soni 23,2 ming kishi. Ular Samarqand davlat universiteti, xorijiy tillar, qishloq xo`jaligi, tibbiyot, servis va arxitektura institutlarida ta`lim olishadi.

Samarqand viloyati mamlakatimizda turizm sohasi bilan ham ajralib turadi. Bu hududda joylashgan, asosan sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug`bek tomonidan barpo etilgan olamshumul binolar, masjidu-madrasalar, tarixiy yodgorliklar - Registon, Shohi-Zinda, Go`ri Amir, Ulug`bek observatoriyasi, Bibixonim madrasasi, Dahbed qishlog`ida joylashgan Mahdumi A`zam, Payariq tumanida respublika Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan yaratilgan Imom Buxoriy qadamjolari nafaqat mamlakatimizda, balki Islom olami va butun dunyoda ham mashhurdir. Bunday qadamjo va ziyoratgohlar viloyatning

boshqa tumanlarida ham ko'p (Urgut, Samarqand, Qo'shrabot tumanlari va b.) SHuningdek, Samarqandning mashhur noni, shirinliklari va milliy taomlari, arxitektura va shaharsozlik yodgorliklari sayyohlar uchun katta qiziqish tug'diradi.

Viloyatda jami 59 ta mehmonxonalar – turistik infratuzilmaning eng muhim ob'ektlaridan biri mavjud, ulardagi o'rinlar soni 3200 ta. Xususiy sektorda ham mehmonxonalar tashkil qilingan. 2010 yilda jami 95072 ta sayyohga, shu jumladan 66 mingga yaqin xorijiy fuqarolarga turistik xizmat ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqorolari 29,1 ming kishi. "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tomonidan 22,1 ming sayyohga xizmat amalga oshirilgan.

Biroq viloyatning turistik salohiyatidan hozircha to'liq foydalanilmayapti. Bu erda turizmning turli shakllarini, jumladan, diniy, ilmiy, eko va agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Buning uchun eng avvalo tashkiliy muammolar, masalan, rek-lama, turistik infratuzilmani zamon talabida shakllantirish zarur.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalar. Samarqand viloyati mamlakatimizning markazida joylashganligi bois, u qulay transport geografik o'ringa ega. Bu erda transchegaraviy ahamiyatga molik xalqaro va milliy maqomdagi temir va avtomobil yo'llari bor. Respublikamizda birinchilar qatorida Toshkent-Samarqand tezyurar yo'lovchilar qatnovini amalga oshiruvchi "Registon" elektrlashtirilgan temir yo'li yo'nalishi tashkil etilgan. Samarqand shahridagi aeroport ham halqaro ahamiyatga ega bo'lib, uning asosida erkin iqtisodiy zona barpo etish imkoniyatlari mavjud. 2011 yilda 45854 ming t yuk, 314,6 mln yo'lovchilar tashilgan. Viloyat doirasida tashilgan yuk va yo'lovchilarning 100 foizi avtomobil transporti zimmasiga tushadi. Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi Bulung'ur va Samarqand tumanlarida ko'p: 6,8 va 7,7 %, Toyloq va Urgut tumanlarida esa, u nisbatan oz. Yuk aylanmasi Bulung'ur, Qo'shrabot va Urgut tumanlarida yuqori, Narpay, Jomboy va Paxtachi tumanlarida kamroq.

Ushbu transport turida yo'lovchilar tashishda ham xuddi shunday hududiy tafovutlar seziladi. Jumladan, Pstdarg'om tumaniga jami viloyatda tashilgan 314,5 mln. yo'lovchidan 23,3 millioni to'g'ri keladi. Bu raqam Kattaqo'rg'on shahri va Paxtachi, Samarqand tumanlarida ham ancha katta. Bunday hududiy farqlar

tumanlarning geografik o`rni, maydonining tashqi qiyofasi, demografik salohiyati, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi kabi omillarga bog`liq.

Samarqand viloyatining tashqi savdo aylanmasi 447,2 mln. AQSH dollariga yaqin. Bu prognoz va o`tgan yilgi ko`rsatkichlardan biroz pastroq. Eksport 151,8, import 295,4 mln. qoldiq minus 143,6 mln. dollarga teng. Eksport tarkibida paxta tolasi 38,2, oziq-ovqat mahsulotlari 47,5, xizmatlar 8,5 foizni tashkil etadi. Importda esa mashina va uskunalar ulushi 48,2, kimyo sanoati mahsulotlari 22,8, oziq-ovqat 11,8 foizga barobar. Mashina va uskunalar hisobidan tashqi savdo aylanmasi nisbiy bo`lsa, bu yomon emas. Chunki sotib olingan zamonaviy texnik jihozlar, mashinalar keyingi yillar taraqqiyoti uchun zamin hozirlaydi.

Viloyat tashqi iqtisodiy aloqalarining 58,9 foizi, shu jumladan eksportning 53,5 va importning 61,3 foizi “Uzoq” xorijiy va Boltiq bo`yi davlatlari bilan amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlar orasida Yaponiya va Evropa davlatlari etakchi o`rinlarga ega. Hududiy jihatdan eksportning yarmiga yaqinini Samarqand shahri ta`minlaydi. Qishloq tumanlaridan Pastdarg`omning eksport salohiyati katta - 35,2 %. SHuningdek, Samarqand (5,7 %), Toyloq (2,6 %), Jomboy (2,2 %) tumanlari ham bu jarayonda qatnashadi, Nurobod, Paxtachi va Qo`shrabot tumanlarida esa 2011 yilda umuman eksport qilinmagan. Importning 52,0 foizi Samarqand shahriga, 8,1 foizi Nurobodga (bu ijobiy hol, sababi - Nurobod viloyatda investitsion faoliyat va umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko`rsatkichlari bo`yicha eng orqada turadi), 7,3 foizi Toyloq va 7,1 foizi Samarqand tumanlariga to`g`ri keladi. Eng oz ko`rsatkich Kattaqo`rg`on shahrida kuzatiladi.

Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar 2011 yilda jami eksportning 1/3 qismini ta`minlagan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahri (49,4 %), Pastdarg`om (35,2 %) tumani hissasiga tushadi. Importda Samarqand shahri qo`shma korxonalari (51,9 %), Nurobod (9,7 %), Toyloq (7,6 %) tumanlari faol ishtirok etishadi. SHuningdek, Samarqand, Urgut va Jomboy tumanlarining ulushlari ham ko`zga tashlanadi. Ayni chog`da Qo`shrabot tumanida import deyarli yo`q darajada. Ichki tafovutlari va iqtisodiy rayonlari. Viloyatning tabiiy sharoiti,

iqtisodiy va transport geografik o`rni, tarixiy rivojlanishi omillariga asoslangan holda uning ijtimoiy- iqtisodiy salohiyati o`ziga xos hududiy xususiyatlar kasb etadi. Bu yerda, eng avvalo, viloyatning birinchi va ikkinchi markazlari - Samarqand hamda Kattaqo`rg`on shaharlari muhim rayon hosil qilish qudratiga ega. Binobarin, viloyatda Samarqand va Kattaqo`rg`on guruh rayonlari yoki iqtisodiy rayonlarini ajratish mumkin. Birinchisining tarkibiga Samarqand shahri, Samarqand, Urgut, Jomboy, Bulung`ur, Toyloq, Pastdarg`om, Oqdaryo hamda Payariq tumanlari, ikkinchisiga Kattaqo`rg`on shahri, Kattaqo`rg`on, Ishtixon, Paxtachi, Narpay, shuningdek, shartli ravishda viloyatning ichki cho`l va tog` oldi hududi egallagan Qo`shrabot va Nurobod tumanlarini ham kiritsa bo`ladi.

SHu tartibda Samarqand iqtisodiy rayoni (sharqiy rayon) hissasiga 32,2 % maydon, 67,8 % aholi, 82,6 % sanoat va 67,4 % qishloq xo`jalik mahsulotlari to`g`ri keladi. Sanoat asosan Samarqand shahrining o`zida, aholi - Samarqand shahar aglomeratsiyasida joylashgan. Fan va ta`lim, barcha ijtimoiy sohalar, jumladan, rekreatsiya va turizm rivojlangan, qishloq xo`jaligi - paxta va g`alla, meva va uzum etishtirishga, shahar atrofi xo`jaligiga ixtisoslashgan.

Kattaqo`rg`on yoki G`arbiy iqtisodiy rayon viloyatning 67,8 % maydoni va 32,2 % aholisini egallaydi. U yalpi sanoat mahsulotining 17,4 %, qishloq xo`jalik mahsulotining 32,6 % ni beradi. Markazi Kattaqo`rg`on shahri (77 ming kishi). Sanoat salohiyati pastroq, qishloq xo`jaligi paxta va g`alla etishtirishga, cho`l va yaylov chorvachiligiga moslashgan. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi qishloq tumanlarining bir birlaridan farq qilishlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. 7-jadvalda qishloq tumanlari darajasida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkichlar (indikatorlar) keltirilgan. Jadval tahlili shuni ko`rsatadiki, ko`pchilik hollarda Jomboy, Pastdarg`om, Payariq, Paxtachi, Narpay Samarqand tumanlari oldinda turadi. Masalan, sanoat va qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, chakana savdo va pullik xizmat ko`rsatishda ham ularning ulushi yuqori. Ayni vaqtda Qo`shrabot Urgut, Ishtixon tumanlarida qayd etilgan sohalar sust rivojlangan. Umuman olganda, 01.01.2010 yil holatiga ko`ra, viloyatda Bulung`ur, Ishtixon, Kattaqo`rg`on, Qo`shrabot, Payariq va Pastdarg`om qishloq

tumanlari davlat dotatsiyasi hisobida turadi. Demak, yaqin kelajakda aynan shu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ustuvor ahamiyat berish talab etiladi. Xulosa o`rnida shuni e`tirof etish lozimki, Samarqand viloyati respublikamiz, qolaversa, undan tashqarida ham mashhur bo`lishiga qaramasdan, uning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan, sanoat, turizm sohalari imkoniyat darajasida

7-jadval

Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari
(2011 yil, aholi jon boshiga)

SHahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo`jalik mahsuloti	XIM	Kapital qo`yil malar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat
Viloyat bo`yicha	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000
<i>shaharlar:</i>							
Samarqand	4,260	0,004	5,310	3,134	1,987	2,976	4,335
Kattaqo`rg`on	1,173	0,189	1,067	0,268	1,283	2,606	1,533
<i>tumanlar:</i>							
Bulung`ur	0,226	1,872	0,161	0,915	0,641	0,875	0,634
Jomboy	0,980	1,391	1,067	0,762	0,958	0,553	0,583
Ishtihon	0,414	1,458	0,084	0,654	0,649	0,459	0,430
Kattaqo`rg`on	0,390	0,995	0,218	0,608	0,824	0,422	0,447
Narpay	0,979	0,725	0,643	0,585	0,774	0,540	0,506
Nurobod	0,065	0,712	0,115	1,111	1,397	0,476	0,346
Oqdaryo	0,578	1,374	0,203	0,631	1,261	0,760	0,616
Payariq	0,558	1,495	0,144	0,598	0,885	0,836	0,349
Pastdarg`om	0,495	0,964	0,225	0,790	0,709	0,647	0,440
Paxtachi	0,727	1,291	0,291	0,838	1,166	0,845	0,506
Samarqand	0,589	0,936	0,592	0,463	0,867	0,835	0,713
Toyloq	0,528	1,830	0,457	0,627	0,891	0,532	0,442
Urgut	0,355	0,898	0,352	0,661	0,596	0,752	0,456
Qo`shrabot	0,154	1,230	0,231	1,044	1,056	0,422	0,349

Jadval O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

emas. Vaholanki, u yaqin o`tmishda katta sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga ega edi. SHu sababdan ham mamlakatimiz mintaqaviy siyosatida unga alohida e`tibor qaratish lozim. Bu erda tegishli xom ashyo va mehnat resurslari, transport va boshqa

infratuzilmalar bor. Asosiy strategik vazifa-ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish, uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishdan, investitsiya muhitini yaxshilashdan (ayniqsa, qishloq tumanlarida) iborat bo`lmog`i lozim. SHu bilan birga, Samarqand shahrining an`anaviy funktsiyasi – “Sayqali ro`yi Zamin” ekanligini kelajakda ham saqlab qolish zarur. Binobarin, bu shahar o`zining avtobuslari bilan emas, eng avvalo, qadimiy yodgorliklari bilan mashhurligicha qolishi kerak.

II BOB ETNOTOPONIMLARNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

1.1. Joy nomlarining shakllanishida etnotoponimlarning roli

Jilg'alardan irmoqlar, irmoqlardan daryolar, daryolardan dengizlar, dengizlardan ummonlar hosil bo'lganidek, eng qadim yerli xalq bo'lgan o'zbeklar urug'chilik, qabilachilik, aymoq, elat, el, xalq kabi tarixiy bosqichlardan keyin millat darajasiga ko'tarildi. O'zbeklar chuqur tarixiy ildizlariga ega yuksak ma'naviy-madaniy salohiyatli millatdir. Biz quyida o'zbeklar va ularning urug'larining kelib chiqish tarixi haqida adabiyotlarda bildirilgan ba'zi fikr-mulohazalarga to'xtalib o'tamiz.

Oltin O'rda xonligining yemirilishi natijasida Astraxan, Qozon, Qrim xonliklari va Mang'itlar ulusi paydo bo'ldi. Xuddi shu davrda Abulxayrxon davlati ham tashkil topdi. O'zbeklarning kelib chiqishi to'g'risida olimlar o'rtasida har xil qarashlar bor. Ba'zilari ko'chmanchi o'zbeklarning kelib chiqishini Oltin O'rda xoni O'zbekxon nomi bilan bog'lashadi. Boshqalari esa bu fikrning asossiz ekanligini ta'kidlashadi. Jumladan, A.A.Semenov bu borada quyidagilarni aytadi: «O'zbek» atamasi Oq O'rdada paydo bo'lgan va XIV-XV asrlarda Eron va O'rta Osiyo tarixchilari uni Oq O'rdadagi barcha turk-mo'g'ul qabilalariga nisbatan qo'llashgan (2). Bu davrda O'zbekxon Ko'k O'rda, ya'ni Oltin O'rda davlatining hukmroni edi va o'zlarini keyinchalik «o'zbeklar» deb atagan ko'chmanchilar uning hukmronligi ostida emasdilar. Tarixchi olim B.Ahmedov ham keyingi fikr tarafdoridir.

Vengr olimi H.Vamberining fikricha, Dashti Qipchoq turk-mo'g'ul qabilalari o'zlarining ozod, hur bo'lganliklari uchun «O'zbek» nomini olishgan (o'z-o'zi, bek-bek, xo'jayin, ya'ni o'z-o'ziga xo'jayin). Rashididdinda «O'zbek» so'zi Juchixonning ettinchi o'g'li Bukalning o'g'li Mingkularning o'g'lining nomi, ismi sifatida keltirilgan. Binobarin, «o'zbek» atamasi atoqli ot sifatida O'zbekxonga qadar ham mavjud bo'lgan. «O'zbek» atamasi barcha Dashti Qipchoq turk-mo'g'ul aholisi uchun umumiy (jamlovchi) nom sifatida XIV asrning

oxiri XV asrning boshlarida paydo bo'ldi degan fikr chiqmasligi kerak. O'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlarning ajdodlari qadim-qadimdan ular hozir yashayotgan hududlarda istiqomat qilishib kelishgan. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida qadim zamonlardan beri har xil turk qabilalari yashab kelishgan.

Mas'ud ibn Usmon Kuhistoniyning guvohlik berishicha, Oq O'rda, ya'ni ko'chmanchi o'zbeklar ulusi tarkibiga quyidagi urug'-qabilalar kiradi: burqut, qiyot, qushchi, iyjon, qo'ng'irot, ushun, o'taji, nayman, jat, chimboy, qarluq, kenagas, durman, kurlaut, tubai, mang'it, nukuz, tangut, uyg'ur, xitoy, taymas, echki, tuman-ming. Binoiyning asarida XV asrning 80-yillarida SHaybonixonni qo'llagan qabilalar ichida shodboqli qabilalari ham, Mahmud ibn Valining ko'rsatishicha, Abulxayron qo'shinida uyrat, mojar va qipchoq urug'laridan ko'ngillilar ham bo'lgan. Bu urug'larning kelib chiqishi har xildir. Masalan, qo'ng'irot, nukuz va qiyotlar kelib chiqishi mo'g'ullarga, tangutlar esa, tibetlarga borib taqaladi.

Xitoy urug'iga qarashli turklar esa (ularning ajdodlarini kidanlar deyishgan) eramizning X-XI asrlarida shimoliy-sharqiy Xitoyda yashashgan va hukmronlik qilishgan. Ro'zbixon XVI asrning boshida o'zbeklarga uchta xalqni, ya'ni qabila uyushmalarini kiritadi: SHaybonixon ulusiga qarashli barcha qabilalar, qozoqlar va nihoyat, mang'itlar.

XVII asrning boshlarida yuqorida nomlari zikr etilgan o'zbek qabilalarining bir qismi SHaybonixon boshchiligida O'rta Osiyoga kirib keladi va hozirgi O'zbekiston hududida o'troq holga o'tdi. SHu davrdan boshlab «o'zbek» atamasi etnik ma'no kasb eta boshladi va ushbu hududdagi turkiy tilli aholi «o'zbek» nomini oldi. Bundan o'zbek xalqining kelib chiqishi XVI asrga tegishli degan xulosa qilmaslik kerak. Ma'lumki, juda qadim zamonlardan O'rta Osiyoda turklar va turkiy tilli xalqlar yashashgan.

Ko'chmanchi o'zbeklar esa Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga kelib, turkiy aholi bilan qo'shilib ketdi va unga o'z nomini berdi. Abdurazzoq Samarqandiy «Matla as-sadayin», Mirxond «Rauzat as-safa», Xondamir «Habib

as-siyar», Muhammad Haydar «Tarixi Rashidi», muallifi noma'lum «Tarixguzide, Nusratnoma» kabi asarlarida XIV-XVI asrlarda ko'chmanchi o'zbeklar bilan temuriylar o'rtasidagi aloqalar xususida juda ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. SHu kabi ma'lumotlarni SHaybonixonning yurishlarini kuylagan Muhammad Solihning «SHayboniynoma», Kamoliddin Binoiyning «SHayboniynoma» asarlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, Binoiy o'z asarida Temuriylar davlatining inqiroziga asosiy sabab temuriylar va ularning amirlari o'rtasida etarlicha birlikning yo'qligidir, deb to'g'ri ta'kidlagan.

SHaybonixonlarning saroy tarixchisi Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniyning «Tarixi Abulxayrxoni» asari ko'chmanchi o'zbeklar tarixi bo'yicha hozircha asosiy manba bulib xizmat qiladi. Ushbu asar Abulxayrxonning o'g'li Suyunchixonning o'g'li Abdullatifxonning topshirig'iga muvofiq yozilgan bulib, asar ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonga bag'ishlangan. Asarda o'sha vaktlarda Dashti Qipchoqda yashagan o'zbek qabilalari, ular davlatining xarakteri va feodal urushlar haqida zikr qilingai. Bu yerda O'zbekiston va Qozog'iston xalqlarining o'rta asr tarixi bo'yicha ham anchagina ma'lumotlar bor. O'rta Osiyoning XVII asrning birinchi yarmiga taalluqli ma'lumotlar Mahmud ibn Valining «Bahr al-asror fi manaqib-i al-xayr» asarida berilgan. Asar Balx hokimi, keyinchalik Buxoro va Samarqand hukmdori ashtarxoni Nodir Muhammadga (1642-1645) bag'ishlangan.

XV asrning 20-yillariga qadar SHayboniy ulusi quyidagi besh ulusga bo'lingan edi: 1. Jumadukxon ulusi (Orol dengizining shimolida Sarisuv va Emba daryolari orasi). 2. Mang'itlar ulusi Hazar (Kaspiy) dengizining shimoliy-sharqiy YAiik va Emba daryolari orasi). 3. Mahmudxo'jaxon ulusi (Jumadukxon va mang'itlar uluslaridan yuqorida). 4. Mustafaxon ulusi (Ishimning o'ng irmog'i – Otbosarning o'ng qirg'og'ida). 5. Davlatshayx o'g'lon ulusi (Tura shahri va unga yaqin bo'lgan yerlar). Bu davrda Mang'it ulusini Edigeyning o'g'li G'ozibiy boshqargan. XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdada taxt-toj uchun boshlangan talashlar ko'chmanchi o'zbeklarning, ularning xoni Abulxayrning keyingi yurishlarida yutuqlarga erishiga sabab bo'ldi. Temur vafotidan keyin (1405 yil 18

fevral) Temuriylar o'rtasidagi janjallar Temur tuzgan saltanatning inqiroziga sabab bo'ldi. Bundan ustalik bilan foydalangan Dashti Qipchoq o'zbeklari Temuriylar hukmronligida bo'lgan Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan hududlarga kirib kelishdi.

Xullas, XIV asrning boshlarida Juchi ulusining emirilishi va uning ikki mustaqil davlatga: Ko'k O'rda (tarixda Oltin O'rda) va Oq O'rdaga bo'linishiga olib keldi. Uluslar o'rtasidagi to'xtovsiz janglar tinkasini quritganligi sabablimi, har qalay, barcha uluslar boshliqlari, jumladan, mang'itlar ulusining qo'llab-quvvatlashi tufayli Abulxayrxon barcha ulusning xoni darajasiga ko'tarildi va juda qisqa vaqt ichida SHayboniy ulusida o'z davlatini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Bunda mang'it sultonlari, o'g'lonlari, amirlarining xizmati beqiyosdir. Mahmud ibn Valining ta'kidlashicha, qabila va urug'larning 200 ga yaqin rahbarlari Abulxayrxonni quvvatlashgan. Ular ichida qiyot, mang'it, durman, qushchi, utaji, nayman, ukarash-nayman, tubai, taymas, jat, xitoy, uyg'ur, qarluq, ushun (usun), qurlaut, ichki, tuman-ming, tangut, qo'ng'irot va boshqa qabila-urug'lar bor edi. Tura shahri to 1446 yilgacha SHayboniylar poytaxti bo'lib qoldi. Ular 1431-1432 yilda Xorazmga katta yurish qildi. Xorazm hukmdori Temuriy amir Ibrohim o'zbek xoniga taslim buldi.

Sirdaryoning o'ng kirg'og'ida joylashgan Sig'nak shahri 1446 yildan 1468-1469 yilgacha ko'chmanchi o'zbeklarning poytaxti bo'lib turdi. Ular temuriylar davlatiga tez-tez tahdid solib turishdi. Lekin ular o'rtasida birlikning yo'qligi, markaziy hokimiyatga bo'ysinmaslik o'zbeklar davlatining ham inqiroziga sabab bo'ldi. Abulxayrxon davlati hozirgi Qozog'istonning, G'arbiy Sibirning va janubiy-g'arbiy Xorazmning juda katta qismini o'z ichiga olgan bo'lgan (18).

Qadimdan bu yerdagi aholi o'rtasida ko'chmanchi hayot va o'troq hayot kechirganlari bo'lgan. O'troqlari, jumladan, hozirgi Qozog'istonning daryo bo'ylarida, Sirdaryo bo'ylarida yashashgan va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanishgan. Biroq chorvachilik Dashti Qipchoq aholisining asosiy mashg'uloti bo'lib qolgan.

Ko`chmanchi o`zbeklarning davlat boshliqlari xon bo`lishgan. Biroq qabila boshliqlari, ruhoniylar, o`g`lonlar va sultonlar davlatni boshqarishda muhim rol o`ynashgan. Xon davlat ahamiyatiga molik bo`lgan biror bir tadbirni o`tkazmoqchi bo`lsa, albatta, ular bilan kengash qilgan. O`zbek xonlari davlatlarida yuqori davlat lavozimlari asosan ikki qabila (uyg`urlar va qushchilar) oqsoqollari qo`lida edi. Ko`chmanchi o`zbeklarning harbiy ishlarida asosan CHingizxon davridagi harbiy tuzum va tamoyillar ustivor edi. CHunonchi, o`zbek qo`shinlarining o`ng qanotini do`rman, tubai, chimboy va uyg`ur qabilalaridan iborat ko`ngillilar, chap qanotini esa burqutlar, qiyotlar, qo`ng`irotlar, naymanlar, qushchi, mang`itlar, ushunlar, iyjanlar tashkil qilardi. Boshqa qabila (tangut, utaji, ukaresh-nayman, jat, xatai, qarluq, kenagas, ichki, tuman-ming) larning ko`ngillilari qo`shinning markazida bo`lishgan.

SHunisi diqqatga sazovvorki, ba`zi o`zbek sultonlari o`z qo`shinlarini bir tilda so`zlovchi kishilardan tashkil qilishga urinishgan. Masalan, 1509 yilning qishida SHayboniixonning qozoqlarning xoni Suyunchxo`jaxonga qarshi yurishida Toshkent hokimining 13 minglik kishisidan 10 mingi faqat tanlangan o`zbek otliqlaridan iborat bo`lgan. XV asrning ikkinchi yarmigacha qozoklar o`zbeklar bilan bir xalqni tashkil qilgan.

O`zbeklar (SHayboniylar) bilan temuriylar o`rtasida savdo-sotiq ishlari rivojlangan. Ko`chmanchilar bilan O`rta Osiyoning o`troq aholisi o`rtasidagi savdo-sotiq ishlariga Sirdaryo bo`yi shaharlari: Yassi (Turkiston), O`tror, Sig`naq, Sauran, Arquq, Uzgend, Oqqo`rg`on va boshqalar muhim o`rin tutgan. Dashti Qipchoq o`zbeklari Yevropa savdogarlari bilan ham savdo ishlarini olib borishgan.

Xullas, o`zbek feodallari temuriylar o`rtasidagi toj-taxt uchun bo`lgan kurashlarga faol aralashib keldi. Xususan, 1451 yilda Samarqand taxtiga Sulton Abusaidni o`tqazishdi. 1460-1461 yillarda esa Ulug`bekning nevarasi, Muhammad Jo`qi tomonida turib, unga qarshi kurashishdi. Bundan tashqari o`zbek xonlariga boshqa temuriylar ham yordam so`rab murojaat qilishdi: Sulton Husayn, Minucheir Mirzo, Alauddavla. XV asrning 80-yillarida ko`chmanchi o`zbeklarning bir qismi hozirgi Qozog`iston hududida qolib ketdi va boshqa qabila

va urug`lar bilan birlashgan holda Qozoq xonligiga asos solishdi, boshqa qismi esa, SHayboniyxon boshchiligida XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Movarounnahrda bostirib kirdi va temuriylar xukmronligini yemirdi. SHayboniyxon va ko`chmanchi o`zbeklar juda qisqa muddat ichida (1501-1506 yillarda) Movarounnaxr va Xuroson ustidan o`z hukmronliklarini o`rnatishdi. Biroq SHayboniyxon vafotidan keyin o`zaro kurashlar kuchayib, Xuroson Safoiylar qo`liga o`tdi. Movarounnaxr esa SHayboniylar o`rtasida mayda bo`laklarga bo`linib ketdi. Abdullaxon II (1583-1598) qattiq kurashlardan keyin mamlakatni birlashtirishga yerishdi, biroq uning vafotidan keyin mamlakatda feodallar kurashi qizg`in tus oldi. SHu davrdan e`tiboran Movarounnaxr ikki mustaqil xonlikka – Buxoro va Xiva xonliklariga bo`linib ketdi. Buxoroda hokimiyat tepasiga mang`itlar, Xivada qo`ng`irotlar kelishdi. XVII asrning oxirlarida Farg`onada uchinchi mustaqil xonlik vujudga keldi, uning poytaxti Qo`qon bo`lib qoldi. Qo`qon xonligi tepasiga tuman – minglar oqsoqollari kelishdi. Binobarin, ko`chmanchi o`zbeklar XVI-XIX asrlarda ham O`rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim rol uynagan.

Ro`zixonning «Mehmonnomai Buxoro» asarida o`zbeklar uch xalqdan (ya`ni qabilalar birlashmasi) tashkil topgan deyilgan: shayboniylar, qozoqlar va mang`itlar. «Nusratnoma» da ko`chmanchi o`zbeklarning, yuqorida Binoiy va Muhammad Solihlar aytganidan tashqari, yana yangi qabila va urug`lar nomlari keltirilgan : majar, salur qozon, ichki bayri, jurkin, boshqirt va b. Bunda Abulxayrxon davridan beri qushchi va nayman urug`larining mamlakat ijtimoiy–siyosiy hayotida muhim o`rin tutishgani ta`kidlangan.

Binoiyning «SHayboniynoma» sida quyidagi etnik qabilalar haqida ma`lumot beriladi.: qushchi, nayman, uyg`ur, qurlaut, girayli, qiyot, qo`ng`irot, tangut, ichki, durman, yabag`u, xitoy, chimboy, shunqarli, shodbakli, ijan, qovchin, jurgun, mang`it, qangli, ming, boshqird. «SHayboniynoma» ning ikkinchi varianti taniqli shoir Muhammad Solih tomonidan yozilgan. SHoir turklarning bilqut qabilasidan bo`lgan. XV asrning oxirlari –XVI asrning boshlarida yashab, ijod qilgan mashhur tarixchi olim Xondamir o`zining «Habib as-sixar» asarida o`sha davrdagi siyosiy

voqealarni tasvirlash bilan birga boy etnografik ma`lumot ham bergan, jumladan, arg`un, barlos, kipchok, jaloyir, qo`ng`irot, hazora-nikudari, aymak, tulkichi, saykanchi va b. qabilalarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va o`rni haqida gapiradi.

Bu borada, yuqorida ta`kidlanganidek, Mas`ud ibn Usmon Ko`hisoniyning «Tarixi Abulxayrxoni» asari muhim ahamiyatga ega. Bunda biz Dashti Qipchoqning sharqiy qismi va O`rta Osiyo tarixiga oid materiallar bilan birga turk-mo`g`ul qabilalari, jumladan, keyinchalik o`zbek xalqining tashkil etilishida uning muhim komponentlari bo`lib xizmat qilgan burqut, jat, durman, iyjan, yangajar, kaanboyli, qarluq, kenagas, qiyot, qo`ng`irot, qushchi, qudagay, qurlaut, mang`it, masit, muluj, nayman, nukus, taymas, tangut, tubayi, tuman-ming, uyg`ur, uyshin, o`tarchi, chimboy va b. qabilalar to`g`risida qimmatli ma`lumotlarga duch kelamiz. Ko`hisoniyning ma`lumoticha, Abulxayrxon (1413-1469) qo`shinining chap qanoti asosini burqut, durman, iyjon, kenagas, qiyot, qo`ng`irot, qushchi, qurlaut, masit, tubayi, ushun qabilalari, o`ng qanotini esa kaanboyli, qudagay, mang`it, muluj, nayman, uyg`ur va chimboy qabilalari tashkil qilgan.

Taniqli tarixchi olim B.Ahmedov duglat urug`ini turkiylashgan mo`g`ul urug`laridan, deb hisoblaydi. O`rta asr Buxorosining qobiliyatli tarixchisi va shoiri Hofizi Tanish ibn Mir Muhammad al-Buxoriy (XVI asr) ning «SHarafnomai shohi» asarida ham o`sha davr mualliflariga xos bo`lgan odat bo`yicha turk-mo`g`ul qabilalarining ro`yxati berilgan: jaloyir, nayman, qarluq, qipchoq, qatog`on, o`tarchi, besh yuz, shakaku, kulon aynani, kerait, olchin, ming, bahrin, uyg`ur, qangli, qo`ng`irot, durman, qushchi, majar, ushun, chashmi obro`, bo`lachi, arg`un, yabu, kenagas, mang`it, tubayi, nukuz, qiyot, boshg`ir va boshqalar.

B.Ahmedovning ta`kidlashicha, bu qabilalarning mamlakat (Buxoro xonligi)ning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtiroki va roli to`g`risidagi ma`lumotlar o`zbeklarning va O`rta Osiyoning boshqa turkiy xalqlarining etnogenezi va tarkib topish masalalarini yoritishda tadqiqotchilarga asqatib qoladi. Biz bu va oldingi

ro'yxatlardan o'zbek urug'laridan qaysilari qadimgi va qaysi birlari keyin paydo bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

Akademik B.Ahmedov O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoliga oid tarixiy asarlarni tahlil qila turib, 17-asrning boshlarida Muhammadyor ibn Arab qatag'on tomonidan yozilgan «Mussaxir al-bilad» («Mamlakatlarni zabt etuvchi») asarida berilgan qabila va urug'larga to'xtalgan: barlos, arg'in, bilqut, jaloyir, durman, qolmoq, qo'ng'iroq, qushchi, qipchoq, orlat, uyshin, mang'it, burqut, kerait, qatog'on, ganchi, qizil oyoq va boshqalar. Bu urug'lar SHoh Budag Sulton (ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonning o'g'li va avlodlari (SHayboniyxon, Mahmud Sulton va ularning avlodlari), Samarqand hukmdori Kuchkinjixon va uning avlodlari, Toshkent hukmdori Suyunchxojaxon va uning avlodlari, Movarounnahr hukmdori Xoja Muhammadxon va Abdullaxon II gacha bo'lgan uning avlodlari hukmdorlik qilgan paytlarida yashagan va mamlakatning siyosiy- iqtisodiy hayotida ishtirok etgan.

XVII asrning yirik olimi balxlik Mahmud ibn Vali qalamiga mansub «Bahr al-asror fi manaqib al-axyar» qomusiy asar bo'lib, unda klassik astronomiya, menerologiya, o'simlik dunyosi, veterinariya, tarixiy geografiya va qadimdan to XVII asrning o'rtalariga qadar musulmon dunyosi siyosiy tarixi zikr etilgan. Bu asarda turk-mo'g'ul qabilalariga ham keng o'rin berilgan. O'sha davrda To'qay Temur, uning avlodlari, shayboniylar va mang'itlar uluslarida Mang'ishloq, Volga bo'yida, Emba daryosi havzalari bo'ylarida mang'itlar, minglar, uyratlar, ushunlar, kellarlar, boshqirlar, mojarlar, saroylar, asslar, qushchilar, jaloyirlar, naymanlar, buyraklar, qarluqlar, arg'unlar va boshqalar yashagan. Bu satrlar asarning birinchi qismida berilgan. Asarning ikkinchi qismida ham etnografik ma'lumotlar anchagina: durmanlar, arg'unlar, bahrinlar, qirq, asslar, ushunlar, qatag'on, qalmiqlar, qushchilar, jaloyirlar, orlatlar, buyraklar, keraitlar, saraylar, olchin, naymanlar, qo'ng'iroqlar, qanglilar, mang'itlar, uyratlar, qurama, o'tarchi, qipchoqlar, dugdak, tubai, kenagaslar, yuzlar, kelesi, yabu, uzzlar, xitoylar, mo'g'ollar, kulan ayanlilar, kuka arab, mojarlar, qush ayakli, minglar, qiyatlar, shirin, bulachi (bulgachi), fulavchi, uyg'urlar, shabayat, mesitlar, mekritlar,

kulangi, turklar va boshqa ko'chmanchi o'zbek qabilalari. Bular Ashtarxoniylar davlatining ma'muriy tizilmasida, o'zbeklar qo'shinlarining harbiy safida va umuman, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashgan. Ko'rinadiki, davr o'tishi bilan o'zbek urug'larining soni ko'payib borgan. XVII asrning yirik tarixchi olimi, Xiva xoni Abulg'oziyxon (1603-1664) asari «SHajariy turk» XVI asr va XVII asrning birinchi yarmida Xorazmning ijtimoiy-siyosiy hayotini tasvirlaydi. Unda shayboniylar shajarasi, o'zbek va turkman qabilalarining ijtimoiy- siyosiy holati haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

XVII asrning tarixiy asarlaridan biri-Xoja Samandar Termiziyning «Dastur al-muluk» O'rta Osiyoda ashtarxoniylarning so'nggi sulolari Abdulazizxon (1645-1681), uning vorisi Subxonqulixon (1681-1701) davri haqida muhim ma'lumotlar beradi. Ushbu asarda, jumladan, XVII asrda o'zbeklarning etnik tarkibi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bu davrda Buxoro xonligida quyidagi qabilalar yashagan: kerait, ass, saroy, qipchoq, jalo'ir, nayman, o'tarchi, xitoy-qipchoq, qung'irot, kulan (ayanli), durman, qatag'on, yuz, ming, arg'un, qiyot, yabu va boshqalar. Bu davrga kelib saroy urug'i oqsoqollari ashtarxoniylar, xususan, Subxonqulixon hokimiyatida hal qiluvchi bo'g'inlarda faol ishtirok etishdi. CHunonchi, Ollohyorbiy va G'oyibnazarbiylar otaliq va xon qo'shinining bosh qo'mondoni lavozimlarini egallashgan. Muhammad Yusufning «Tarixi Muqimxoniy» asarida Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining to Subxonqulixon vafotiga qadar davri tasvirlangan.

SHu bilan birga ushbu kitobda o'sha davr (XVII asr) Balx va uning atrofida yashagan quyidagi o'zbek qabila va urug'lari nomlari berilgan: yuz, durman, puladchi, o'tarchi, kelichi, arlat, qo'ng'irot, turkman, ming, alchin, qatag'on, yabu, saroy, qalmoq qipchoq, nayman, qurama va boshqalar. Unda yana o'sha davrda Movarounnahrda yashagan 92 o'zbek qabila va urug'lari aytilgan.

Buxorolik tarixchi Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullohnoma» asari XVIII asrning birinchi o'n yilligi davrida, ya'ni ashtarxoniy Ubaydullohxonning Buxoro xonligidagi hukmronlik yillarini (1702-1711) chizib bergan. Muallifning xabar berishicha, u durman urug'idan bo'lgan. Asardan ma'lum bo'ladiki, durman

urug`iga mansub ayrim shaxslar (Bekmuhammadbiy durman, Muhammad Rahimbiy durman) xon saroyida ancha nufuzga ega bo`lganlar. Muallif o`sha davrda marqa urug`idan bo`lgan yuzlarning Hisorda yashaganliklarini ham xabar qiladi. Ubaydullaxon qo`shini tarkibida kenagas, jabut qabilalari borligi ta`kidlanadi. O`sha davrda O`rta Osiyoda yashagan turk-mo`g`ul qabilalari haqida ham ma`lumot bor: saroy, durman, ming, yuz, qatag`on, mang`it, kenagas, qo`ng`irot, nayman, alchin, kerait, qurama, jabut, mesit, uyrat, xitoy-qipchoq, qirq, marqa (urug`), shodi, yabu va boshqalar. Ba`zi joylarda tarixchi yuzlar, qatag`onlar, mang`itlar, naymanlar, qo`ng`irotlar, alchinlar va boshqa urug`lar istiqomat qilgan hududlarni ko`rsatib o`tgan. Bir vaqtlari juda kuchli bo`lgan ba`zi qabila (nayman va qo`ng`irot) larning birligiga putur eta boshladi. O`sha davrda naymanlar Termizda yashashgan.

Abdurahmon Davlat Tole o`zining «Tarixi Abulfayzxoniy» asarida ashtarxoniy Abulfayzxonning (1711-1747) Buxoro xonligida 1711-1724 yillardagi hukmronligi haqida hikoya qiladi. Abulfayzxon davriga kelib, o`zbek urug`lari o`rtasidagi kelishmovchiliklar keskin kurashlarga sabab bo`ldi. Xususan, mang`itlar bilan kengaslar, qo`ng`irotlar bilan naymanlar, xitoy qipchoqlari bilan minglar o`rtasida bo`lib o`tdi. Bu esa Buxoro xonligining parchalanib ketishiga sabab bo`ldi. Jumladan, Farg`ona vodiysi Buxoro vodiysidan ajralib, Qo`qon xonligini tashkil etdi. Ashtarxoniylar davlatida ikki hokimiyatchilik vujudga keldi: Abulfayzxon boshchiligidagi Buxoro hokimiyati, Rajabxon boshchiligidagi Samarqand hokimiyati.

Ushbu asarda qabila va urug`lar to`g`risida boy etnografik material ham mavjud: durman, nayman, ming, o`tarchi, qo`ng`irot, etti urug`, qipchoq kerait, qatag`on, saroy, bahrin, mang`it, alchin, bo`yrak, burqut, kenagas, qarchig`ay, lachin, chunak, xitoy-qipchoq, shaxbaz, yuz, jiyut va boshqalar. Bular o`sha davrda (XVIII asr) Buxoro xonligi hududida yashashgan va mamlakat hayotida faol ishtirok etishgan.

Ashtarxoniy shahzodalardan bo`lgan hoji Mir Muhammad Salim o`zining «Silsilat as-salatin» («Podshohlar shajarasi») asarida XVI-XVII asrning birinchi

choragida O`rta Osiyoning ijtimoiy va siyosiy tarixini, shuningdek, SHarqiy mamlakatlar (Eron, Afg`oniston va SHimoliy Hindiston) bilan siyosiy munosabatlarini tasvirlab bergan. SHu bilan birga ba`zi etnik ma`lumotlar ham o`z aksini topgan. Bunda qushchi, arlat, fulovchi, o`tarchi, kenagas, yuz, alchin, qatag`on, qo`ng`irot, durman, qipchoq, uyrat, saroy, yabu, tubai ming, qurama, kelech va b. Qabilalar qatorida birinchi marta burut qabilasi nomiga duch kelinadi. Odatda bu etnonim qirg`izlarning etnik komponentlarini tashkil etadi. Bu erda islomga qadar payg`ambarlar tarixi, qadimgi turklar va mo`g`ullar, Qovchili bahodirdan Tarag`ay bahodirgacha, Temur va temuriylar Jahongir, Mironshoh, SHohruh, Muhammad Sulton, Sulton Abusaid Mirzo, Umarshayx, Bobur va uning avlodlari tarixi zikr etilgan.

Qoziy Vafo va domulla Olimbek ibn Niyozqulibeklarning «Tuhfat al-xoni» («Xon tuhfasi») asari Buxoro xonligi tarixiga bag`ishlangan bo`lib, u ashtarxoniylar hukmronligining so`nggi yillarini va birinchi mang`it hukumdorlari Muhammad Rahimxon (1757-1759) va amir Muhammad Doniyorning (1759-1785) Buxorodagi hukmronlik yillarini o`z ichiga oladi. Ma`lumki, Muhammad Rahimxon asos solgan mang`itlar sulolasi Buxoroda 164 yil davomida (1757-1920) hukmronlik qildi. Ushbu manbaga qaraganda, Muhammad Rahimxon davrida mang`itlar, xitoy-qipchoqlar, bahrinlar, saroylar, kenagaslar, jaloyirlar, o`tarchilar va boshqalar yuqori davlat lavozimlarida bo`lishgan.

Bu erda ba`zi qabilalarning joylashishiga oid ma`lumotlar ham bor. Xususan, o`sha davrda bahrin, etti urug`, jaloyirlar Miyonkalatda, kenagaslar SHahrisabzda, mang`itlar, asosan, Qarshida, saroylar G`uzorda, burqutlar Nurda, durmanlar Kubadianda, yuz va o`tarchilar Hisor, O`ratepa va Urgutda, qirqlar Jizzaxda, qo`ng`irotlar Boysun va Kshtutda yashagan. Etti urug` qabilasidan bo`lgan yabu urug`i Turkiston va SHaxarak o`rtasida, yuz qabilasidan bo`lgan shodi va marqa urug`lari Urgut va Hisorda istiqomat qilishgan.

O`zbek adabiyotinig ko`zga ko`ringan namoyandalari SHermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiylarning «Firdavs al-iqbol» asari Xiva xonligining XVI-XIX asrlardagi tarixiga oiddir. Asar qo`ng`irotlar sulolasining

(1804-1920) uchinchi vakili Olloqulixon hukmronligi: (1825-1826-1842) ning topshirig`iga binoan yozilgan. Asarda quyidagi o`zbek qabilalari nomlari berilgan: nayman, uyg`ur, qo`ng`irot, mang`it, qangli, qipchoq, yuz, o`n to`rt urug` (ushshag urug`), nukuz, qiyat, saroy va b.

Mahdumi A`zam Kosoniyning «Nasabnomai o`zbek» («O`zbeklarning shajarasi») asari (XVI asr) o`zbeklarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatni va 92 o`zbek qabila va urug` ro`yxatini o`z ichiga olgan.

Muallifning ta`kidlashicha, guyo Ibrohim payg`ambar va uning xotini Bibisora o`zbeklarning ajdodlari bo`lgan. Ularning 92 kishidan iborat ajdodlari xalifa Abubakr Siddiqning otasi bilan birga Turkistondan Arabistonga kelgan va Muhammad payg`ambarning dushmanlariga qarshi urushda qatnashgan. Ularning jasoratlarini ko`rgan payg`ambarimiz: «Turk-mening suyanchig`im», -degan. Keyinchalik barcha o`zbeklar shu 92 jasoratli kishidan kelib chiqqan va ularning nomlarini o`zlariga qabul qilib olishgan. Mana ular:

O`zbek urug`lari to`g`risida ma`lumot

1	Ming	24	Urat	47	Kurlas	70	Jubrat
2	YUz	25	Qiyat	48	Ukalan	71	Biday
3	Qirq	26	Xitay	49	Qari	72	Tatar
4	O`zbek	27	Tunkli	50	Arab	73	Tabash
5	Unkajat	28	Uzjulachi	51	Ilachi	74	Michkir
6	Jaloyir	29	Quychi	52	Juburgan	75	Sulduz
7	Saroy	30	O`tadji	53	Tishliq	76	Tubai
8	Qo`ng`irot	31	Bulatchi	54	Keray	77	Tilov
9	Olchin	32	Juyut	55	Turkman	78	Kirdor
10	Arg`in	33	Jat	56	Do`rman	79	Biktiya
11	Nayman	34	CHilchut	57	Tabin	80	Karkin
12	Qibchaq	35	Buvmaut	58	Tama	81	SHirin
13	CHaqmak	36	Uymaut	59	Ramadan	82	O`g`lan
14	Azak	37	Arlat	60	Muytan	83	Qurlat

15	Qalmaq	38	Kerait	61	Uyshin	84	Bog`lon
16	Tarliq	39	Unkut	62	Badayi	85	CHinboy
17	To`dak	40	Tankut	63	Xafiz	86	CHexilkas
18	Burlak	41	Mang`it	64	Qirg`iz	87	Uyg`ur
19	Samarchik	42	CHalchuv ut	65	Mojar	88	Agar
20	Qipchaq	43	Mesit	66	Kuchalik	89	Yabu
21	Kelechi	44	Merkit	67	Sauran	90	Targ`il
22	Kinakash	45	Burqut	68	Bahrin	91	Turgak
23	Buyrak	46	Qiyat	69	Uyris	92	Koxat

Turk-mo`g`ul qabila-urug`lari haqida fan uchun qimmatli ma`lumotlarni Z.M.Boburning «Boburnoma» sidan ham topish mumkin. Boburning guvohlik berishicha, XV-XVI asrlarda Farg`ona vodiysi, Toshkent, SHohruhiya, O`ratepa, Samarqand va Hisorda quyidagi o`zbek urug`lari yashagan: dulday, qipchoq, bahrin (baarin), charas (churas), mog`ol, dug`lat, bekchik, qavchin, arg`un, uyg`ur, barlos, ming, chog`raq, mang`it, o`tarchi, qara quyluq baxarlu va b.

Xoja Salohiddin Toshkandiy qalamiga mansub bo`lgan «Temurnoma» asarida (1990) talay o`zbek urug`larining nomlari zikr etilgan. Mana bulardan ba`zilari. «Sayyid Ota muridlaridan Qo`ng`ir otlig` yigit maydonga kirib, bir-bir ellik qalmoqni jonin tamug` kazarmasiga yubordi. Anda Sayyid Ota aydilar: barakallo, Qo`ng`ir otlig` muridim. Oni avlodi qo`ng`irot otandilar. Andin kiyin manglay oq qashqa otlig` bir yigit maydonga kirdi. Ul bahodur qalmoqdin sakson kishini jahannamga sakbon qildi. Anga Sayyid Ota «barakallo, manglay otlig` muridim» dedilar. Mang`ut otandirlar. Mang`ut asli– manglay ot. Ammo, mang`ut ikki qismdur oq mang`ut, qora mang`ut. Oq mang`ut hazrat Amir Temur avlodidur». «Bular doim qilichni yalang qilib olib yuradilar, barlos ma`nisi qilichni qinga solmaganin ayturlar».

2.2. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit- turk» asarida etnotoponim joy nomlarining qo'llanilishi

Yozma manbalar orasida, ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit- turk» asarida bu masala juda yaxshi yoritib berilgan. Jumladan, asarda dastavval 20 qabila nomi keltirilgan: 1) bajanak, 2) qifchoq, 3) o'g'uz, 4) boshg'irt, 5) yamak, 6) basmil, 7) qay, 8) yabaqu, 9) tatar, 10) qirqiz, 11) chigil, 12) to'xsi, 13) yag'mo, 14) ig'raq, 15) jaruq, 16) jumul, 17) uyg'ur, 18) tangut, 19) xitoy, 20) tafg'ach.

Ushbu 20 qabila «Turk tabaqalari va qabilalari» deb nomlangan. M.Koshg'ariy bu qabilalardan tashqari yana quyidagi qabila va elatlarni tilga olgan: 1) sug'dak, 2) kanjak, 3) arg'u, 4) xo'tan, 5) tubut, 6) bulg'or, 7) suvar, 8) tojik. Asarda o'g'uz qabilasiga tegishli 22 urug' nomi ham sanab o'tilgan: 1) qiniq, 2) qayig', 3) bayundur, 4) ifa/iva yoki yiva, 5) salg'ur, 6) afshar, 7) bektili, 8) buktuz, 9) boyot, 10) yozg'ir, 11) aymir, 12) qorabuluq, 13) olquabuluq, 14) igdar, 15) urakir yoki yuragir, 16) tutirqa, 17) ulayundulug', 18) tugar, 19) bajanak, 20) juvoldor, 21) jabni, 22) jaruqlug'.

Devonda boshqa qabilalarning ham ba'zi bir urug'lari haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan: 1) qarluq, 2) jikil, 3) bulak, 4) kujo, 5) xalach, 6) turkman, 7) bayat. Xullas, Mahmud Koshg'ariy ma'lumot bergan urug', qabila, elat hamda ularga xos bo'lgan toifalar turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklarning ham avlod-ajdodlari bo'lgan. Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida ham o'zbek urug'lari to'g'risida ma'lumotlar bor. Jumladan, she'riyat sultoni Alisher Navoiy o'zining «Navodur ush-shabob» asarida barlos, arlot, yag'mo, mirak, bek, chuyut, qarluq, qovchin, xalaj, saroy, ming, arab, lo'li, yuz, qo'ng'irot, sulduz, tarxon kabi o'zbek urug'larini tilga oladi.

1.Jaloyir. Jaloyirlar-turk-mo'g'ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabilalar uyushmasi. O'zbeklar tarixida jaloyirlarning ikkita yirik qaychili va bolg'ali urug'lari hamda bir qancha kichik urug' bo'linmalari bo'lgan (qarg'ali, boshqird, qaroabdual, qorako'li, qorachopon, chuvildoq, jastaban va b.

**2.Mang`it.** Mang`itlar-yirik qabilalardan biri. O`zbekiston hududida yashovchi mang`itlar bir qancha yirik va mayda urug`larga bo`lingan. Eng yiriklari: oq mang`it, och mang`it, qora mang`it, chala mang`it, boyg`undi mang`it. Bulardan tashqari, yana temirxo`ja, isoboy, gaulak, ko`sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg`ali, mang`it qozoq, o`n ikki cho`qay, gala botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay va boshqa urug`lar ham bo`lgan.

3.Saroy–o`zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyushmasi. Saroylarning kichik bir guruhi qozoqlarning arg`in qabilasi tarkibida ham bo`lgan. Saroylar tarkibida bir qancha kichik va katta qabilalar mavjud bo`lgan. Masalan, az-saroy, qipchoq saroy, qirg`iz saroy, qo`ng`irot saroy, majar saroy, qorabog` saroy, nayman saroy va b. Bularning har biri o`z navbatida yana bir qancha urug`larga bo`lingan. Saroylarning kelib chiqishi haqida ma`lumot yo`q. Saroylar etnik birlashma sifatida 14-15 asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo`lib, 16-asrda boshqa o`zbek qabilalari bilan birga hozirgi O`zbekiston hududiga kelib joylashgan.

4.Nayman urug`i haqida Samarqand Davlat universiteti dotsenti M.Yo`ldoshev o`zining «Naymanmi yoki nay bilanmi?» nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Nayman» so`zining ma`nosi ikki xil tahlil qilinadi: birinchisi mo`g`ul tilidan olingan bo`lib, «sakkiz» sonini ifodalasa, ikkinchisi qadimiy turkiy tildan olingan bo`lib, «nay-odam», «man» esa egalik qo`shimchasidir.

Naymanlar haqidagi fikr birinchi ma`nosiga to`g`ri keladi. CHunonchi, V.Bartol`d, I.Beredin kabi olimlar naymanlarning etnogenezi mo`g`ullar bilan bog`laydilar. S.Amonjolov va N.Aristovlar esa naymanlarni turk, deb hisoblaydilar. Bunga sabab qadimgi sharq qo`lyozmalarida hamda urxun yozuvlarida «sakkiz o`g`iz» qabila ittifoqi tilga olinadi: taxminan X asr o`rtalarida mo`g`ul urug`iga mansub bo`lgan xalqlardan biri kidanlar sakkiz o`g`izlar, deb atalgan turkiy qabilani bosib oladilar va mo`g`ul bo`lmagan bu qabila birligini «naymanlar», ya`ni «sakkiz o`g`izlar» deb atay boshlaganlar. Naymanlar VIII asr o`rtalarida Baykal ko`lining janubida yashagan. IX asrdan boshlab Urxun

daryosining yuqori oqimidan to Qora Irtishgacha bo'lgan erlarni bosib olib, XII asr boshlarigacha o'z hukmronligini o'tkazadilar.

XII asrning oxirida CHingizxon naymanlarga qarshi hujum boshlaydi va 1204 yilda naymanlarning xoni Tayanxonni o'ldiradi. Yarlari bosib olingan naymanlarning katta bir qismi mo'g'ullarga tobe bo'ladi va o'zlarining eski joylarida-Oltay, Irtish daryosi bo'ylarida qoladi. Mo'g'ullarga itoat etmagan naymanlarning bir qismi esa g'arbga qarab chekinganlar va Sirdaryo, Ishim daryolari bo'ylarida yashaganlar. Keyinchalik naymanlarning katta qismi Xorazm va Movarounnahrda ko'chib o'rtnashganlar.

Tadqiqotchi B.Eshmatov yuz urug'i haqida quydagilarni yozadi: «YUz, uz, juz-etnonim, qadimiy turkiy qabila bo'lib, u o'zbeklar tarkibiga kirgan azaliy etnik birlikdir Juz yoki yuz terminining kelib chiqishi to'g'risida turli qarashlar bor. V.V.Radlov juz-«yuzta urug'ning birlashmasi», «qabilalar ittifoqi» ma'nosi bo'lsa kerak, deb hisoblaydi».

Mahmud Koshg'ariy (XI asr) o'zining «Devonu lug'ot it-turk» asarida Afrosiyob va Samarqand haqida quydagilarni yozadi: «Turklarning ulug' xoni Afrosiyobni Tunga Alp Er, deb atar edilar. Yo'lbars kabi kuchli, bahodir odam demakdir»... Qand-o'g'izlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida – qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. SHuning uchun Farg'onani O'zbekkent–o'z shahrimiz, deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Semizqand–semiz shahar deydilar. Buni forsilar Samarqand tarzida qo'llaydilar». Yana bir joyda: «Samarqand eng eski shahardir. Uning asl nomi Semizqand–katta shahar demakdir»,–deb yozadi. «Devon»ning birinchi jildida Balasog'un shahrini ta'riflar ekan, muallif quyidagilarni yozadi: «Balasog'un eng katta shaharlardan biri edi. Xalqi ham turkiy, ham sug'dcha so'zlashur edi. Eski nomlari Ko'z urdu va Ko'z ulus. Buxoro, Samarqanddan ko'chib borgan sug'doklar Balasog'unda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan edilar». Ba'zi bir manbalarda Samarqandning yoshi 5 ming yil bilan o'lchanadi, deyilgan. Ko'rinadiki, turkiylar, jumladan, o'zbeklar juda qadimgi xalqlardan hisoblanadi.

Akademik Bo`riboy Ahmedov tarixnavislik fani O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o`rta asr tarixini o`rganish bo`yicha ancha yutuqlarga erishganligini ta`kidlaydi. U kishining uqtirishicha, hali bu sohada chuqur o`rganishni talab qiladigan masalalar talaygina. SHular qatoriga, jumladan, etnik jarayonlar kiradi. Bunga bosh sabab – ushbu masalalar bo`yicha mavjud yozma yodgorliklarni o`rganish va ularning natijalarini e`lon qilish juda past darajada ekanligi. SHu ma`noda yozma manbalarni aniqlash, bir tizimga keltirish va ularni tanqidiy o`rganish, shuningdek, har bir manbaga alohida yondashish, ulardan eng keraklisini ola bilish o`ta muhim vazifadir.

III BOB. SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA O'ZBEK XALQI ETNIK GURUHLARI TARQALISH GEOGRAFIYASI

3.1. Tumanlar etnitoponimlari geografiyasi

1. Bulung'ur tumani. Tumanda xalqimizning o'n ikki nomdagi etnik guruhi uchraydi. Bular: qirq, tuyoqli (shoxobchalari: chubot, vaxtam, changal, mirzaesa, mullaesa), xitoyzi (bolg'ali, erganakli, qoraqalpoq, turkman, mo'g'ul, vaqqos, nayman, qirg'iz, uray, mang'it, tojik).

